

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI O`QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

Fayziyev Boburning

**“Cho'lpon shariatida davr ziddiyatining aks etishi”
mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Navoiy-2014

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3-5
I BOB. CHO‘LPON IJODI VA UNING O‘RGANILISHI TARIXI.....	6-21
II BOB. CHO‘LPON SHE‘RIYATI MILLIY UYG‘ONISH DAVRI MAHSULI.....	22-41
XULOSA.....	42-44
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	45-46

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy-estetik qadriyatlar va ma'naviy merosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Chunki, qadriyat va tarixiy meros millat ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim mezon hisoblanadi. Xalqimizning falsafiy-estetik tafakkur taraqqiyotini belgilagan mutafakkirlarning qarashlari va ta'limotlari ham ana shu mezonning tarkibiy qismidir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Chindan ham tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'chmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Isoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar fidoiy insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi"¹.

Mazkur fikr ajdodlarimiz ma'naviy, ma'rifiy merosini ilmiy o'rganishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy sohalardagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'lidagi imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyatda ma'rifatparvar ziyolilarning, xususan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodini o'rganish muhim ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Cho'lpon qarashlarida ozodlik, istiqloq, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi yuksak axloqiy-estetik g'oyalar ifodalangan.

¹ Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 49 - b.

Adabiyotshunoslik ilmda Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Elbek, Cho‘lpon, Usmon Nosir va boshqa shu kabi ma’rifatchi-jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari o‘rganilgan.

Cho‘lpon o‘tgan asrning boshlarida o‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib, barmoq vaznida jozibali she’rlar, realistik hikoya hamda roman yozgan ijodkor. Biroq uning ijodini faqat poeziya bilan chegaralash mumkin emas. U bir vaqtning o‘zida ham shoir, ham dramaturg, ham nosir hamda adabiy tanqidchi sifatida ham ijod qildi.

Abdulhamid Cho‘lpon ijodining g‘oyaviy asoslari xalqni ma’rifatli qilish, badiiy dunyoqarashini boyitish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish kabi yetakchi tamoyillarga tayanadi va ularni inson kamoloti, xalq hayoti va jamiyat ma’naviy yuksalishidan ayri holda tasavvur etish mumkin emas.

Cho‘lpon she’riyatidagi obrazlilik, shoirning poetik mahorat masalalarini o‘rganish orqali ijodkor dunyoqarashi va badiiy niyatini ko‘rsatib berish ishning dolzarbligini tashkil etadi.

Ishning ilmiy yangiligi. - Abdulhamid Cho‘lpon ijodining milliy va umumbashariy ahamiyatiga yangicha yondoshuvlar ilmiy tahlil etilganligi;

- she’r san’atida badiiy obraz yaratishning estetik xususiyatlarini Cho‘lpon ijodidagi badiiy talqini yoritilgan;

- shoir ijodidagi ramziy obrazlilik tahlil etiladi;

- Abdulhamid Cho‘lpon g‘oyaviy qarashlarining estetik mazmuni yuksak badiiylik namunasi ekanligi tavsiflanganligi;

- adabiyot va san’atning uyg‘un rivojlanishi ma’naviy taraqqiyot mezonini ekanligini Cho‘lpon ijodi orqali asoslashga harakat qilinganligi;

- go‘zallikning falsafiy-estetik hamda g‘oyaviy-badiiy mohiyatini Cho‘lpon ijodidagi in’ikosi qiyosiy tahlillar asosida o‘rganilganligida ko‘rinadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ishimizning asosiy maqsadi ma’rifat qurbonlarining ijodiy merosi, ularning badiiy mahorati,

yangi o'zbek adabiyotining poetik xususiyatlarini ochib berishdan ibora Toshkent

Ishni bajarishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Cho'lpon ijodini chuqur o'rganish;
- Shoir ijodining badiiy mahoratini aniqlash;
- Cho'lpon she'riyatida davr ziddiyatining aks etishini tahlil qilish;
- Cho'lpon she'riyatini poetik tadqiq qilish.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda Abdulhamid Cho'lpon ilmiy-badiiy merosining o'ziga xos jihatlari hamda badiiy asarlari (poeziyasi)ning adabiy talqini masalalariga doir aksariyat bitiruv malakaviy ishlari adabiyotshunos va filolog olimlarning ilmiy izlanishlari natijasidir.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va metodi. Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy mafkura va ma'naviy qadriyatlar tizimiga doir asarlari metodologik asos vazifasini o'tadi. Ushbu ilmiy Bitiruv malakaviy ishida ma'rifat qurbonlari va yangi o'z adabiyoti va uning vakillari bo'yicha izlanishlar olib borgan Ozod Sharafiddinov, B.Qosimov, N. Karimov, U. Normatov, U.Dolimov, A.Aliyev, D.Quronov kabi olimlarning ilmiy xulosalariga asoslanib yozildi. Ishda qiyosiy-tarixiy metoddan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishi ishini yozishda Ozod Sharafiddinov, B.Qosimov, N. Karimov, U. Normatov, U.Dolimov, D.Quronov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan materiallardan keng foydalanildi. Cho'lponning nashr etilgan she'riy va nasriy to'plamlari ishning asosiy manbasini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi: Kirish, ikki asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. CHO‘LPON IJODI VA UNING O‘RGANILISHI TARIXI

O‘zbek yangi she‘riyatining asoschilaridan biri, dramaturg, nosir, publitsist va tarjimon Cho‘lpon dunyoqarashi va ijodininig shakllanishiga asr boshlaridagi demokratik inqiloblar hamda jadidchilik harakati katta ta‘sir ko‘rsatgan. Uning “Xalil farang”, “Cho‘rining isyoni” kabi kichik pesalari, “O‘rtoq Qarshiboev”, “Mushtumzo‘r” kabi dramalari hamda ko‘p vaqt sahnadan tushmagan “Yorqinoy” pesalari mashhur bo‘lgan.

Cho‘lpon (1898, Andijon - 1938.4.10, Toshkent) – taxallusi; asl ismi-ota ismi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov. Shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi. Dastlab madrasada (1908-12), so‘ngra rus-tuzem maktabida (1912-14) o‘qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo‘li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimini oshirgan. 1914-yil Toshkentga kelib, “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan hamkorlik qilgan. “Chig‘atoy gurungi” nomli adabiy-ma‘rifiy, ilmiy-madaniy tashkilotning faol a‘zosi (1919-1920), “Yangi Sharq”, “Ishtirokiyun” (1920-yildan “Qizil bayroq”, 1922-yildan “Turkiston”) gazetasida adabiy xodim (1919-1923), Xalq maorif komissarligi qoshidagi Ilmiy kengash (1921-yildan O‘lka o‘zbek bilim hay‘ati, 1922-yildan Ilmiy hay‘at)da rais (1920-1923), “Buxoro axbori” gazetasida muharrir (1921-22), “Turon” teatrda direktor (1921; 1922-1923), “Mushtum” jurnali va “Darxon” gazetasida texnik muharrir, adabiy xodim (1922–23), O‘zbek drama studiyasi (Moskva. 1924-1927) va O‘zbek davlat drama teatrda adabiy ko‘makdosh (1927-1931), “Mushtum” va “Guliston” jurnallari hamda “Teatr” gazetasida adabiy xodim (jamoatchilik asosida, (1935-1937). 1914-yil Toshkentda M.Abdurashidxonov va U.Xo‘jayev bilan tanishishi Cho‘lponning milliy uyg‘onish harakati namoyandasi sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lgan. Cho‘lpon “Sadoi Turkiston” gazetasida dastlabki “Turkistonli qardoshlarimizga” she‘ri, “Qurboni jaholat”, “Do‘xtir Muhammadyor”

hikoyalari va “Adabiyot nadir” maqolasini e’lon qilib (1914), shu davr adabiyoti namoyandalari safidan o’rin egallagan. Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini anglagan Cho’lpon, boshqa jadidlar qatori, o’z asarlari bilan xalqning madaniy va ma’rifiy saviyasini ko’tarishga kirishgan. Cho’lpon Turkiston muxtoriyat hukumatining barpo etilishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni sharafllovchi “Ozod turk bayrami” she’rini yozdi va bu she’r o’zbek davlatchiligi tarixida ilk madhiya bo’ldi. Cho’lpon bu davrda Z.Validiy chorlovi bilan Orenburgga borib, Boshqirdiston muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida ham ishtirok etdi. Turkiston muxtoriyati tugatilgach, Cho’lpon “Ilmiy kengash”, “Chig’atoy gurungi”, “Nashri maorif” tashkilotlari va “Turon” teatrida adabiy, ilmiy-ma’rifiy ishlar bilan mashg’ul bo’ldi. She’r va maqolalar yozish bilan istiqlool uchun kurashda davom etdi. Ammo respublika madaniyat xodimlarining 2-qurultoyi (1927) dan keyin Cho’lponga qarshi boshlangan kurash uni siyosiy faoliyatdan uzoqlashishga, hatto Cho’lpon 1925 yilga kelib, «Muhit kuchli ekan, egdim bo’ynimni» deya ijtimoiy qarashlarini o’zgartirishga majbur bo’lganligini e’tirof etadi. Ammo shunga qaramay, shoir yaratgan ikki yuzdan ortiq she’riy asarlar el-yurt baxti, kelajagi, mustaqilligi, ozodligi uchun kurashning yorqin solnomasi, desa bo’ladi.

Garchi vaqti-vaqti bilan uning tuyg’u va tafakkurida tebranishlar bo’lib turgan bo’lsa-da, aslida, milliy istiqlool uchun kurashdan zarracha qaytmadi.

1931-35-yillarda Moskvaga qochib borib, musofirlikda yashashga majbur etdi. Cho’lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriylar kabi qatag’on davrining qurboni bo’lgan. Cho’lpon 1937-yil 14-iyul kuni hibsga olinib, ko’p o’tmay, otib tashlandi.

Cho’lponning asarlari uzoq vaqt davom etgan tanaffusdan keyin 1991 yili “Yana oldim sozimni” nomi bilan nashr etildi.

Cho’lponning adabiy merosi she’riyat, nasr, dramaturgiya, publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar hamda tarjimalardan iborat Toshkent Cho’lponning

she'riy asarlari "O'zbek yosh shoirlari", "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) va "Soz" (1935) to'plamlarida, shuningdek, turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan. Ular g'oyaviy-tematik yo'nalishiga ko'ra ikki guruhga ajraladi: sof lirika va ijtimoiy-siyosiy lirika. Cho'lpon she'riyati jahon lirik she'riyatining mumtoz vakillari darajasiga ko'tarilgan. "Go'zal", "Sezgi", "Sirlardan", "Men shoirmi?" singari she'rlari bilan 20-yillarning boshlaridayoq barmoq vazniga asoslangan yangi o'zbek she'riyatini yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'ravonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etishga qaratilgan she'rlar yozdi ("Buzilgan o'lkaga", "Xalq", "Vijdon erki", "Kishan" va boshqalar) Cho'lpon bu she'rlari bilan adabiyotning kurash quroliga aylanishi mumkinligini isbotlab berdi. Shoirning yurak qoni bilan yozilgan bu she'rlari vatandoshlarida o'zbek diyoriga otashin muhabbat, mustamlakachilarga nafrat, erk va hurriyat g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini tarbiyaladi. Cho'lponning "ko'ngil lirikasi" an'analari keyinchalik Oybek, H.Olimjon, Mirtemir, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi va boshqalar ijodida muvaffaqiyat bilan rivojdantirildi. Cho'lpon iste'dodiga xos lirik nazokat va nafosat shoir nasriy asarlarini ham o'ziga xosligini belgilab keladi. Cho'lpon qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali mujassamlantirishga erishdi. Shu ma'noda uning 20-yillarda yozgan "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalaridir. Cho'lpon bu hikoyalarda o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy rejada tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g'oyani aks ettirgan. Umuman, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho'lpon she'riy ijodining ham, kichik epik

asarlarining ham, “Kecha va kunduz” (1936) romanining ham asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab bergan. Cho‘lpon nasriy ijodining muhim qismini publitsistika tashkil etadi. U “Yo‘l esdaligi”, “Vayronalar orasidan” kabi qator ocherk va publitsistik maqolalarida 20-yillardagi mustamlaka o‘lka hayotining mudhish manzaralarini tasvirlagan. Cho‘lpon bu asarlarida realistik tasvir san’atini mukammal egallagan yozuvchi sifatida gavdalanadi. Cho‘lpon yozuvchilik mahoratining shunday qirralari “Kecha va kunduz” romanida, ayniqsa, yorqinroq aks etgan. Cho‘lpon Abdulla Qodiriy bilan birga o‘zbek adabiyotida realistik roman va hikoya janrlarining taraqqiyot tamoyillarini belgilab berdi. Cho‘lponning dramaturgiya sohasidagi dastlabki izlanishlari 1919-yilga oid. U shu yili “Temirchi”, “Gunoh”, “Cho‘rining isyoni” singari kichik sahna asarlarini yozdi. 20-yillarning boshlarida esa Cho‘lponning “Yorqinoy”, “Xalil farang”, “O‘ldiruvchi” (1921), “Sevgi va saltanat”, “Cho‘pon sevgisi” (1922) pesalari maydonga keldi (bu asarlarning aksari bizgacha yetib kelmagan). Cho‘lpon “Turon” teatriga direktorlik qilgan yillarida sahna san’ati va dramaturgiya “sir”larini, shuningdek, rus tilini puxta egallagani tufayli 1924-yil Moskvada tashkil etilgan o‘zbek drama studiyasiga adabiy ko‘makdosh etib yuborildi. O‘zi ham studiyachilar uchun sahna asarlari (“Yorqinoy”, “Yana uylanaman”, “Uzun quloq bobo”) ni yozdi. Rus va Yevropa dramaturglaridan K.Gotssining “Malikai Turondot”, N.V.Gogolning “Tergovchi”, V.N.Bill-Belotserkovskiyning “Labbay”, Molerning “Xasis” pesalarini o‘zbek tiliga tarjima qilib berdi. Cho‘lpon 1927-yilda Moskva va Boku drama studiyalari qatnashchilari bazasida O‘zbek davlat namuna truppasi (1929-yildan O‘zbek davlat teatri) tashkil etilgach, mazkur truppa (teatr)ning adabiy ko‘makdoshi sifatida faoliyat olib bordi. Shu davrda uning kishilar va jamiyat hayotidagi nuqsonlarni hajv etuvchi “Mushtumzo‘r”, “Hujum” (V.Yan bilan hamkorlikda, 1928), “O‘rtoq Qarshiboyev” (1929) kabi pesalari sahna yuzini ko‘rdi. Cho‘lpon ayni paytda teatr tarjimoni sifatida ham samarali ijod qila boshlagan. K.Goldonining “Ikki

boyga bir qarol”, Lope de Veganing “Qo‘zi buloq”, U.Shekspirning “Hamlet”, F.Shillerning “Bosmachilar”, Bill-Belotserkovskiyning “Po‘rtana”, A.Faykoning “Portfelli kishi”, V.Ivanovning “14–69 raqamli zirhli poyezd” pesalarini o‘zbek tiliga o‘girdi. Cho‘lpon adabiy ko‘makdosh, dramaturg va tarjimon sifatida M.Uyg‘ur bilan birga professional o‘zbek teatrining tamal toshini qo‘ydi. Cho‘lpon adabiy merosining salmoqli qismini tarjima asarlari tashkil etadi. Cho‘lpon A.S.Pushkin (“Boris Godunov”, “Dubrovskiy”). N.V.Gogol (“Tergovchi”), I.S.Turgenev (“Cho‘ri qiz”), I.Franko (“Million”, “Feruza”), L.Andreyev (“Gubernator”, “Osilgan yetti kishining hikoyasi”). A.P.Chexov (“Qochoq”). A.M.Gorkiy (“Ilgaklar”, “Ona”) singari rus va boshqa xalqlar adabiyotining mumtoz asarlarini ham katta mahorat bilan tarjima qilib, zamonaviy milliy tarjima maktabiga asos soldi. Cho‘lpon tarjimasidagi U.Shekspirning “Hamlet” tragediyasi o‘zbek tarjima san’atining yuksak namunasidir.

Cho‘lpon deganda, ko‘z oldimizda tiniq va musaffo osmonda eng yorqin nur sochayotgan yirik yulduz namoyon bo‘ladi. Cho‘lpon nomini eslaganimizda, xayolimizda adabiyot dunyosining so‘nmas va yil sayin qalbimizga iliqlik, tarovat, ko‘zimizga nur, ongimizga tiniqlik baxsh etayotgan, huzurimizga tobora yaqinlashib kelayotgan tong yulduzidek shoir siymosi jonlanadi. Biz ana shu barhayot yulduz – XX asr o‘zbek adabiyoti tongining Cho‘lponi to‘g‘risida suhbatlashamiz.

Andijonlik hunarmand Sulaymon mulla Muhammad Yunus o‘g‘li oilasida 1897-yili do‘mboqqina go‘dak dunyoga keldi. Unga yaxshi niyat bilan Abdulhamid deb ism qo‘ydilar. Otasi durustgina savodli, shoirtabiat (Sulaymonqul «Rasvo» degan taxallus bilan g‘azallar bitgan, hatto devon ham tuzgan edi) odam bo‘lganligidan o‘g‘lining tarbiyasiga alohida e’tibor berdi. Avval mahallasidagi maktabda, keyin Andijon va Toshkent shaharlaridagi madrasalarda o‘qitdi. Zamona zayli bilan Andijonda ochilgan rus-tuzem maktabida ham ta’lim oldi. Natijada Abdulhamid yoshligidanoq

arab, fors, tojik, turk va rus tillarini puxta o'rgandi, badiiy adabiyotga ixlosi ortdi. 16-17 yoshlaridayoq har tomonlama chuqur bilimli, ilg'or fikrli ziyoli kishi bo'lib yetishdi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'lining ijodi 1913-1914-yillardan boshlangan. Uning ilk asarlari "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Samarqand" gazetalari, "Oyina", "Sho'ro" kabi jurnallarda bosilib turgan. Cho'lpon dastlab «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat, «Cho'lpon» («Tong yulduzi») taxallusi bilan ijod qildi. Shoir "Cho'lpon" taxallusi bilan umrining oxirigacha ijod qilib, butun mamlakatga mashhur bo'ldi.

Professor Naim Karimov qayd etishicha, shoirga «Cho'lpon» taxallusini buyuk ma'rifatparvar va istiqlolchi Munavvar qori Abdurashidxonov bergan.

U ijodini hikoya yozish bilan boshlagan. Hozircha "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 6-sonida bosilgan "Qurboni jaholat" hikoyasi Cho'lpon qalamiga mansub bo'lgan ilk badiiy asar sifatida tan olingan. Yana shu yili Cho'lponning "Boy" deb atalgan sahna asari ham «Sho'ro» jurnalida e'lon qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan va taraqqiy etgan falsafiy-estetik tafakkur yo'nalishini asosan jadidchilik harakati belgilagan edi. Jadidlarning falsafiy-estetik va pedagogik qarashlarining O'rta Osiyoda keng tarqalishi va katta ijtimoiy hodisaga aylanishida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Cho'lpon, Abdulla Avloniy singari buyuk shaxslarning xizmati katta bo'ldi. Jumladan, jadid-ma'rifatchilari o'z dasturida millat va mamlakatning dunyoviy taraqqiyoti yo'lida tushov bo'lib kelayotgan diniy fanatizm va qoloq rasm-rusumlarga qarshi chiqish, eski maktablarni yangi o'quv usullari bilan isloh qilish, xalq ommasining savodini chiqarish maqsadida matbuot masalalariga jiddiy e'tibor qaratib, yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivoji ustida qayg'urish; Yevropa madaniyatidan orqada qolib ketmaslik uchun zamonaviy milliy teatr tomoshalarini tashkil etish; xotin-qizlarning

jamiyatdagi va oiladagi ahvolini o'zgartirish maqsadida turli ijtimoiy islohotlar yo'lini qidirish singari muammolarni o'rta tashladilar.

Ma'lum bo'ladiki, badiiy asarda ijtimoiylik va shaxsiylik qorishiq holda zuhur qilar ekan, faqat bu o'rinda ijtimoiylik va shaxsiylik nisbati har bir konkret asarda turlicha bo'lishini, turlicha zuhur qilishini e'tiborda tutish lozim bo'ladi. Deylik, ijtimoiylik darajasi epik va lirik asarlarda jiddiy farqlanadi, ba'zan lirik asarda ijtimoiylikdan asar ham yo'qday ko'rinadi. Ayrimlar, xususan "sof san'at" tarafdorlari ayni shu holni mutlaqlashtirmoqchi bo'ladilar, she'riyat faqat ko'ngil ishi bo'lishi kerak degan gaplar eshitiladi. Xo'sh, insonning ko'nglidagi tuyg'ular, iztirobu quvonchlar kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy emasmi? Misol tariqasida lirik qahramonning muayyan bir holati, kayfiyatigina qalamga olingan bir she'rni olib ko'raylik:

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega muncha g'amgin nayning navosi,
Nega qalbim to'la o'kinch va malol?
Barglar orasiga tinmasdan sira,
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.
Bilmayman qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.
Mag'lub bahodirning nayzasi misol,
Ma'yus egiladi terak uchlari,
Barglar soyasida o'ynaydi behol
Uyqudagi qizning bedor tushlari.
Atrofimda yotar g'arib bir viqor,
Bilmam, nega o'chdi qalbim safosi.
Nima ham qilardim, na ilojim bor,

Bahor kunlarida kuzning havosi.¹

Ko‘rib turganimizdek, she’rda tabiat manzarasi tasvirlanadi va shu asosda mahzunlik kayfiyati ifodalanadi. Biroq, “bahor kunlarida kuz nafasining esish”idan kelgan mahzunlik - obraz, mana shu holatning yuzaga kelish sabablari o‘zgacha bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. Mazkur she’r 1967-yilda yaratilgan edi. Nechun endi A.Oripov bahor kunlaridagi kuz havosi haqida gapiradi? Gap shundaki, she’r yozilgan payt 50-yillar oxiridan jamiyat hayotida kuzatilgan uyg‘onish, nisbiy erkinlikning 60-yillar o‘rtalaridan qaytadan bo‘g‘ila boshlagan davriga to‘g‘ri keladi. A.Oripov jamiyatning bir a‘zosi sifatida, erkka tashna ijodkor sifatida bu holdan iztirob chekadi, azoblanadi. Hassos shoir o‘zini qiynagan DARD suratini tabiat manzarasida ko‘radi, “bahor kunlaridagi kuz havosi”dan kelgan iztirobini, alamu o‘kinchini ifodalaydi. Jamiyatning ko‘zi ochiq a‘zolarini iztirobga solgan bu ijtimoiy dard shoirning shaxsiy dardiga aylangan, dardning shaxsiylanish darajasi shunchalarki, biz she’rni “ko‘ngil she’riyati” deyishga-da, uni “sof san’at” namunasi sifatida baholashga-da moyilmiz.

Ijtimoiy dard ijodkorning shaxsiy dardiga aylanmasa, ijodkor o‘sha dardni chinakamiga qalbidan kechirmasa, biz yuqorida aytgan “yalang‘och ijtimoiylashuv” yuzaga keladi. Totalitar tuzum barchaning birdek o‘ylashini taqozo etgandiki, bu narsa jamiyatda shaxs maqomining susayishi, jumladan, ijodkor shaxsining yemirilishiga olib keldi. Natijada ko‘plab asarlarda ijtimoiy dard ijodkorning qalb qozonida obdon qaynamasdan, faqat rasmiy mafkuraning badiiylashtirilgan ifodasi bo‘lmish shiorbozlikka to‘la she’rlar, hayotni rasmiy mafkura ko‘zi bilan ko‘ruvchi, tasvirlovchi va baholovchi epik asarlar yaratildi. Bu narsa adabiyotning tussizlashuviga, ijodiylikning inqiroz topishiga olib keldi. Adabiyotdagi tussizlikning boisi shuki, adabiyotdagi (ayniqsa, 30-60-yillardagi) ko‘plab asarlarda ijtimoiylik bo‘lgani holda ijodkor shaxsi yo‘qolgan, natijada ular bir-biridan shakliy

¹ Sharafiddinov Ozod. – “Ijodni anglash baxti”, T.: “Sharq”-2004. 57-b.

xususiyatlari bilangina farqlanadigan, go‘yo rang-barang qog‘ozlarga o‘rab berilgan bitta matohga aylanib qolgandi. Albatta, chinakam iste’dod bunday bo‘g‘iq sharoitga ko‘nikolmaydi, isyon qiladi.

60-yillardan boshlab esa adabiyotimizda ijodiy “men”ning isyoni kuchliroq namoyon bo‘la boshladi, dunyoni o‘zicha tushunish va baholashga intilish boshlandi. Shunga qaramay, bular adabiyotimizning umumiy holatini, “havosi”ni belgilay olmas, zero, rasmiy mafkura rag‘bati bilan kuchaygan “yalang‘och ijtimoiylik” bir tushovga aylanib qolgan va dadil olg‘a bosishga imkon bermasdi. Tabiiyki, ularni e’tiborga olgan holda ko‘pchilikning adabiyotdagi ijtimoiylikdan bezganlik kayfiyatini tushunsa bo‘ladi, biroq mafkura tazyiqi bilan “yalang‘ochlangan ijtimoiylik”ni deb adabiyotning tabiatiga xos bo‘lgan ijtimoiylikni inkor qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Cho‘lponning dunyoqarashi insonparvarlik, millatparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi, deydi, uning ko‘plab ocherk va publitsistik maqolalari xalq hayoti va taqdiriga bag‘ishlanganligi uqtiradi. Bu borada “O‘sh”, “Bahor ovullari”, “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar”, “Do‘xtir Muhammadiyor”, “1914-1917-yillar kabi...” asarlarida ana shu tendensiya ko‘zga tashlanishini ta’kidlaydi. Cho‘lpon 1920-1924-yillar mobaynida juda ko‘p publitsistik maqolalar, yo‘l taassurotlari va esselar (“Sharq uyg‘ongan”, “Yo‘lda bir kunduz”, “Yo‘lda bir kecha”, “Yo‘l esdaligi”, “Chimkent”, “Quturgan mustamlakachilar”, “Chopon” va hokazolar) yozdiki, ularning g‘oyaviy-badiiy ahamiyati quyidagi ijtimoiy-estetik g‘oyalarni ifodalashga qaratilgan edi:

Cho‘lpon tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik va hamohanglik zarur ekanligini, bu jamiyat uchun ham, odamlar va insoniyat uchun ham tabiiy ehtiyoj ekanligini kuyunib yozadi. Shuning uchun ham Cho‘lpon dunyoqarashi bashariyat ilg‘or tafakkuri, jonajon o‘lka tabiati va qishloqlari, turmush tarzi, hayoti va faoliyati hamda o‘z davri ijtimoiy, siyosiy, badiiy-

estetik qarashlarining gumanistik va vatanparvarlik g'oyalari ta'sirida shakllandi va rivojlandi.

Adibning "Qurboni jaholat" deb nomlangan birinchi hikoyasiyoq jadidchilik g'oyalariga hamohang ravishda maorifiy mavzusida yaratilgan. Uning yosh qahramoni Eshmurod bilim olishni, Yevropa shaharlariga borib o'qishni orzu qiladi. Ammo otasining johilligi tufayli bu niyatiga yetolmay o'zini o'zi halok qiladi. O'sha yili yozilgan "Doktor Muhammadiyor" deb atalgan xayoliy (romantik) hikoyasida ham Turkiston yoshlarining chet ellarga borib o'qib, elu yurtiga foyda keltiradigan odamlar bo'lib yetishuvini orzu qiladi.

Chunonchi, shoir keng va ochiq tafakkurni, erkin va ozod milliy yuksalishni, ma'rifat va madaniyat orqali hayotni go'zallashtirishni orzu qildi, shu yo'lda tinmay faoliyat ko'rsatib, ijod qilganligini o'z sayohatnomasida quyidagicha xulosalaydi: "Shu kalta sayohatning natijasida ko'p narsalarni ko'rdik. 5-6 yillik buzg'unlik tarixini joy-joyida varaqlab, o'qib ko'rdik. Buzg'unlik haqiqatan juda kuchlik. Buzg'unlikni yo'q qilib, yiqilg'onni tiklash uchun juda zo'r kuchlar, tuganmas g'ayratlarga ehtiyoj bor. Yurt – buzulg'on. Lokin uning munbat tuprog'i ko'chib ketgani yo'q, joyida. U tuproq orqali yana yurtning yashnatmak siz va bizning qo'limizda, hurmatli o'qug'uvchilar"¹. Mazkur fikrlar Cho'lponning dunyoqarashi ezilgan, xo'rlangan, vayronaga aylangan o'lkaning ijtimoiy muhitida o'z xalqi va yurtini ozod ko'rish istagi, mustaqillik orzulari tarzida shakllanganligini isbotlaydi.

Cho'lponning yangi o'zbek teatri taraqqiyoti uchun uch yo'nalishda ish olib borganligini bayon qiladi. Bu, avvalo teatr sohasidagi o'z nazariy bilimini oshirish yo'lida rus va jahon teatri haqidagi kitob va maqolalarni chuqur mutolaa qildi, teatr xususidagi nazariy qarashlari uni original asarlar

¹ Cho'lpon. Vayronalar orasida. Nashrga tayyorlovchi: Jo'ra Xudoyberdiyev. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

yaratishga chorladi va nihoyat, jonajon xalqi estetik madaniyatini jahon xalqlari san'ati namunalari bilan boyitish maqsadida tarjimonlik iqtidorini yuksaltirdi. Shu tariqa 20-yillardayoq o'zbek madaniyati Cho'lpon siymosida teatr nazariyotchisi, dramaturg va tarjimonga ega bo'ldi.

Cho'lponning teatr estetikasi bilan bog'liq o'zbek professional teatrini shakllantirish, ayniqsa, aktyorlik mahorati xususidagi qarashlari uning "Moskvada ikki turk san'atkori" degan maqolasida o'z aksini topganligi ta'kidlanadi. Jumladan, maqoladan Cho'lpon Rossiya teatr san'atidagi g'oyaviy-badiiy yo'nalishlarga ham e'tiborni tortadi va an'anaviy teatrlar qatorida "Me'yorxold teatri" deb nom olgan yangi san'at dargohi vujudga kelganini aytadi. "Bu – chinakam inqilob teatri; uning har narsasi degandek yangi, shu bilan birga, u yangiliklar ham muqarrar o'rnashmagan – "vaqtli" narsalar. Shu uchun bu muassasani uqtirg'on vaqtda "Istish teatri" deb qo'yadilar. Bu to'g'ri uqtirish, haqiqatan "Me'yorxold teatri" har kungi talabga qarab yangi yo'l axtaradir"¹.

Cho'lpon real haqiqat, aniq voqea, hodisalardan ko'ra "Sharq", "G'arb", "Muhit", "Erk", "Ko'lanka" singari umumiy tushunchalarning badiiy inikosini berishga, umumiylik va mavhum lavhalarda lirik qahramon tili va dilida kechayotgan jarayonlarni ifodalashga intildi. Chunonchi, romantik badiiy tafakkurga xos xususiyatlardan biri shundaki, unda bepoyon olam siru-sinoatlari, uzoq va yaqin o'lkalar tarixi ham tasvir ob'ektiga aylanadi. Bunday ijodkorlarda poetik maksimalizm, ulkan ijtimoiy muammolar ildizini qidirish singari badiiy tadqiq belgilari kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, XX asrga kelib Sharq G'arb masalasi keskin ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy qarashlar maydoniga aylandi. Ma'lumki, Sharq mamlakatlarining G'arb imperialistlari tomonidan bosib olinishi ularning shundoq ham ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotidagi sustkashlikni yanada

¹ Cho'lpon. Moskvada ikki turk san'atkori. Nashrga tayyorlovchi Ulug'bek Dolimov. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1991 yil 3 may.

chuqurlashtirib yubordi. Bunga qarama-qarshi o‘laroq ilg‘or kuchlar va ma’rifatparvar kishilarning Sharq ozodligi va mustaqilligi yo‘lidagi harakatlari, faoliyatlari kuchaya boshladi. Shu bois, badiiy ijodda ham siyosiy mavzular ko‘proq ko‘tarildi, Sharq va G‘arb mamlakatlarida yashovchi xalqlarning turmush tarzi qiyoslana boshlandi va bunday tafovutlar sababini aniqlash tamoyili kuchaydi. Ismoil To‘lakovning yozishicha, «Oq va Qora, Tun va Kun, G‘arb va Sharq asr boshlariga kelib badiiy ijodda o‘zlikni anglash va uni saqlab qolish tuyg‘ularini ifodalash vositasi sifatida she’riyatda mustahkam o‘rin tuta boshladi»¹.

Aytish mumkinki, Sharqni Misr ehromlari va Nil daryosi, fallohlar to‘yi, Suriya Shomiyu, Himolay tog‘i, hind qizi, Nishopur bog‘lari, Xayyom g‘azallari, Konfutsiy falsafasi, Zardo‘st ta’limoti, Bedil kalomlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. ”Sharq” deganda shoir buyuk ma’naviyat saltanatini va bu madaniyatni barpo etgan shaxslar va davrlarni tilga oladi. Shoir Sharq tarixi va taqdirida nihoyatda murakkab, chigal jumboqlar borligi, uni ochmoq uchun tayyorlanish kerakligiga ishora qiladi. Bu borada shoir “Yorug‘ yulduzga” degan she’r yozadi. Bu she’rda shoirning niyati ko‘ngil va orzular armoni tarzida aks etadi, Sharq taqdiri lirik qahramon hayot-mamoti bilan bog‘liq ekanligiga ishora qilinadi. Lirik qahramon yulduzga qarab xitob qiladi:

Go‘zal yulduz, nurli yulduz, tez so‘zla,
Otalarning tarixdagi jafosin,
Shul xatodan afsuslanib, yovlarning
El ko‘ksida surgan ishrat, safosin.
So‘zla, anglat o‘tgandagi turmushning
Butun qonli, shonli jonli yerlarin
Ko‘z oldimda jilvalanur yurt uchun,
Jonlar berib, qonlar to‘kkan erlaring.

¹ To‘lakov Ismoil. Cho‘lpon mahorati. –Andijon: “Mehr” nashriyoti, 1997. – 37 b.

Choʻlponning 20-yillar poeziyasida Sharq va Gʻarbning umumlashma timsollari, obrazlari koʻplab uchraydi. Sharq va Gʻarb shoir ijodida bir-biriga qarama-qarshi. Biri ikkinchisi ustidan hukmronlik qilishga intiluvchi, biri-ikkinchisini xoʻrlab, zoʻrlab hayot kechirayotgan zulm va nohaqlik timsoli sifatida gavdalanadi. Sharqning yozini ham, kuzi va qishini ham tilga olar ekan, shoir lirik qahramon tilidan fasllarning barchasida ingrab yotgan Sharq obrazini ochib berishga harakat qiladi. Bir oʻrinda Sharq qoloqligidan aksincha, ikkinchi oʻrinda yaralangan Sharq tanasiga malham boʻlgisi keladi, xasta, tutqun Sharqning ahvoliga achinadi.

Choʻlpon qaysi mavzu, muammoga qoʻl urmasin, u Sharqu Gʻarb muammolari boʻladimi, tabiat manzarasimi, ishq-muhabbat kechinmalarimi, millat tarixi yoki istiqbolimi, erk orzusimi – barchasida shoir millatparvar lirik qahramon siymosida namoyon boʻladi. Chunonchi, Choʻlponning “Poʻrtana” sheʼri erk sari intilgan lirik qahramonning qalb nidosi boʻlib jaranglaydi. Bu sheʼrda shoir ikkita muhim masalaga oʻquvchi diqqatini tortadi: birinchidan, millat va mamlakat hayotida, butun dunyoda roʻy berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga ishora bor. Choʻlpon sheʼriyatidagi nafosatga yoʻgʻrilgan badiiy gʻoyaning kuchi shundaki, u oʻz qalbida tugʻilgan kechinmalar kurtagini atrofdagi barcha jonli va jonsiz narsalarga, insoniy dard va orzularga payvand qiladi, singdiradi va bu ruhiy jarayondan oʻzi ham kuch olib yangi manzil, yangi mavzu, yangi tuygʻular sari intiladi. Choʻlpon poeziyasi oʻquvchini loqayd qoldirmaydi, oʻzligini anglashga, oʻzini - “Men erkinmanmi? Nega? Nima uchun?” - degan savollarga javob izlashga majbur qiladi.

Maʼlumki, Choʻlpon poeziyasi xalqchilligi va milliyligini belgilovchi mavzu, motiv va jihatlar xilma-xil. Masalan, shoir yashagan davrda yoshlarning savodi va istiqboli, oʻzbek xotin-qizlarining taqdiri masalasi millat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammo edi. Xotin-qizlar taqdiri

va nafosatiga bag'ishlangan she'rlarda Cho'lpon tabiat mo'jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg'ab oladi va shoh satrlarga joylaydi. "Sharq qizi", "Men va boshqalar", "Qiz qo'shig'i", "Er asiralari", "Paranji", "Kelinchak", "Zangbuning qizi" kabi she'rlar bunga yorqin misol bo'ladi. Shuningdek, shoir ijodining xalqchilligi uning muhabbat taronalarida ko'zga yaqqol tashlanadi, muhabbat mavzusidagi she'rlar shoirning poetik dahosi, uslubi va obrazli tafakkuri naqadar ko'pqirrali ekaniga yorqin misol bo'la oladi. Cho'lpon uslubi klassik shoirlarning xayolot bilan chirmashib ketgan uslubidan ham, sub'ektiv kechinmalar bilan o'ralashuvchi poetik ehtirosdan ham ajralib turuvchi, real kechinmalarning tafti va hayajonlarini ifodalovchi, oyog'i yerga mahkam qo'yilgan, ammo nigohi olis-olislarga qaratilgan lirik qahramon obrazini namoyon qiluvchi romantik uslub edi.

Cho'lpon she'riyatidagi lirik qahramon xayoldagi yoki afsonaviy go'zalni emas, hayotiy, jonli go'zalni sevadi. Bu sevgi obrazlar ta'sirida tug'ilgan va hayotiy siymo shaklida gavdalanadi. Lirik qahramonning sevgilisi "oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal".

Shoir she'riyatining g'oyaviy-badiiy kuchi qalbda tug'ilgan kechinmalar bilan bog'liq holda voqelikni insoniy dard va orzularga payvand qilish orqali namoyon bo'ladi. Chunonchi, o'zbek xotin-qizlarining chinakam ozodlikka chiqishi, erkin qush kabi parvoz etishi, o'zining tabiiy go'zalligini paranji ostida yashirmay, ochilib-ochilib yurishini shoir orzu qiladi, qizlarni, qizga o'xshash juvonlarni ko'klam chog'i, oy to'lgan, yulduz kulgan kechalarda ko'rishni, ularga bir dasta gul berib, zavqlarga to'lishni, yulduzlardan nur olib, shu'lalarga burkanishini istaydi.

Har bir ijodkorning estetik qarashlari u yashagan davrning ijtimoiy, tarixiy va milliy xususiyatlari, badiiy tajriba va an'analari ta'sirida shakllanadi. Shu bilan birga, san'atkorning estetik qarashlari tarixiy, mafkuraviy va milliy jarayonning oddiy oynasi bo'lib qolmay, iste'dodining qirralari, dunyoqarashi va estetik ideali birligidan tashkil topadi. Bugungi kun

Choʻlpon ijodini oʻrganish tarixiy haqiqatlarga amal qilishni, ijodkorning boy adabiy, nazariy merosini obʻektiv tadqiq etishni, shaxs sifatida unga yopishtirilgan har qanday mafkuraviy, siyosiy va gʻayriilmiy illatlardan tozalashni taqozo etadi.

Choʻlpon tabiat bilan jamiyat oʻrtasidagi uygʻunlik va hamohanglik zarur ekanligini, bu jamiyat uchun ham, odamlar va insoniyat uchun ham tabiiy ehtiyoj ekanligini kuyunib yozadi. Shuning uchun ham Choʻlpon dunyoqarashi bashariyat ilgʻor tafakkuri, jonajon oʻlka tabiati va qishloqlari, turmush tarzi, hayoti va faoliyati hamda oʻz davri ijtimoiy, siyosiy, badiiy-estetik qarashlarining gumanistik va vatanparvarlik gʻoyalari taʼsirida shakllandi va rivojlandi. Choʻlpon adabiyotning yangi gʻoyaviy mazmuni uchungina emas, ayni choqda uning yuksak badiiyati uchun ham kurashgan.

“Aytishlaricha, olim biror olamshumul kashfiyot yaratsa, uni xalqqa anglatmoq uchun bu kashfiyotni tafakkur yuksakliklaridan kundalik turmush zaminiga olib tushmogʻi, mavhum va murakkab formulalar tilidan joʻn, koʻnikilgan tushunchalar, oddiy tasavvurlar tiliga koʻchirmogʻi lozim. Shoir ham olamshumul kashfiyotlar qiladi – betakror ranglarga, maftunkor jilolarga, sehrli maʼnolarga, durdona hikmatlarga toʻla goʻzal dunyo yaratadi. Biroq bu dunyoni anglamoq va anglatmoq uchun joʻnlashtirib, oddiy maishiy tilga koʻchirib boʻlmaydi. Joʻnlashtirishimiz bilanoq goʻzallik gʻoyib boʻladi. Odamning yuragi shoir yuragi bilan bir maromda tepsagina, odamning yuragi ham shoir yuragidagi nafosatga tashna boʻlsagina, muallif yuragidek goʻzallikga eshiklarini lang ochib qoʻysagina oliy goʻzallikni idrok etmogʻi mumkin. Bu esa gʻoyat murakkab ish”¹.

Choʻlpon ham ana shunday oʻzgacha olam yarata olgan, ijodni anglash baxtiga muyassar boʻlgan shoirlardan biridir. Choʻlpon ijodi 1914-yildan boshlangan boʻlsada, biroq shoir ijodi parvozi 20-yillarga toʻgʻri keladi.

¹ Sharafiddinov Ozod. – “Ijodni anglash baxti”, T.: “Sharq”-2004. 14-b.

Hatto xorijdagi ba'zi adabiyotshunoslar shoir ijodining mohiyatini xolislik bilan to'g'ri belgilashga harakat qilishdi.

Zarif Bashariy birinchi bo'lib, Cho'lpon haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan: "Cho'lpon o'rtoq keyingi davrdagi o'zbek shoirlaridan eng oldingisi va chin ma'nosi bilan shoir deb atalishga loyiq bo'lganidan uning she'rlarini chin adabiyot va she'r ko'zi bilan ko'rib, tekshirish va tanqid qilishga yaraydir"¹

Cho'lponni anglash yo'lida dadil qadamlar 1991-yildan keyin – respublikamiz mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgandan keyin qo'yildi. Islom Karimov qator nutqlarida o'zbek xalqining ko'nglidagi tuyg'ularni ifodalab, Cho'lponga juda katta baho berdi va uning bugungi kun bilan hamnafas shoir ekanligini ta'kidladi.

Cho'lponni anglash so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir.

Cho'lponni anglash uning buyuk umumbashariy g'oyalarini, uning yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olishdir.

¹ Sharafiddinov Ozod. – "Ijodni anglash baxti", T.: "Sharq"-2004. 18-b.

II BOB. CHO'LPON SHE'RIYATI MILLIY UYG'ONISH DAVRI MAHSULI

Cho'lpon ko'proq she'riyatda ijod qildi va bu borada o'zbek she'riyatining qaddi-bastini yanada yuksaklikka ko'targan, unga yangicha shakl va mazmun, yangicha ohang hamda libos kiydirgan shoir sifatida mashhur bo'ldi. Cho'lponning birinchi she'rlar to'plami "Uyg'onish" 1922-yilda bosilgan. Shundan so'ng birin-ketin "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz" kabi to'plamlari e'lon qilindi. "Jo'r" deb atalgan she'riy kitobi qamalishi munosabati bilan dunyo yuzini ko'rmadi, izsiz yo'qoldi.

Cho'lponning "Xalq", "Go'zal", "Ko'ngil", "Kuz", "Binafsha", "Buzilgan o'lkaga", "Men va boshqalar", "Qo'zg'olish", "Aldanish", "Erkinlik istagi" singari o'nlab she'rlarida erk tuyg'usi, istiqlol umidi yorqin ifodalangan. Bular orasida ayniqsa, "Aldanish" va "Erk istagi" she'rlari g'oyat ibratlidir. 1922-yilda yozilgan har ikkala she'rning sarlavhasidan ham ayon bo'lib turibdiki, shoir mafkura tuzog'ida besh yil joni qiynalganligini angladi, uning barcha orzulari sarob bo'lib chiqdi:

Men uni xayoliy, totli bir sevisht,
Ilohiy bir muhabbat, ishq bilan sevdim.
Besh yil, shuning uchun besh yil anglayish,
Yonish, kuyishlarim... oh, endi bildim.

Shoir ona yurtining begona qo'l tegmagan momiqdek bo'yniga istibdod zanjiri yanada qattiqroq tortilganligini anglab yetdi. Endi:

Erkin ko'nglim chiday olmas bu siqiq,
Bu bog'langan, bu "egalik" turmushda

deya hayqiradi Cho'lpon va bu "tor qafasdan o'zini qutqargali" urinayotgan, intilayotgan xalqini mustamlaka kishanlarini parchalab tashlash uchun qo'zg'olishga chaqiradi. Endi erkinlik istagidan o'lsa ham qaytmaydi:

Ey! Sen meni haqir ko'rgan, tuban degan afandi!
Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzilur.

Tomirimda qo‘zg‘olishning vahshiy qoni gupurdi,
Eski fikr, anoanalar endi butkul uzildi.
Yo ketarman yoki sening saltanating buzilur!
Ey! Sen meni qul o‘rnida ishlatguvchi afandi,
Titra, qo‘rqim, bog‘liq quling bosh ko‘targan kuch endi!

Yigirmanchi yillarda yaratgan she‘rlarida Cho‘lpon mustamlakachilik timsoli sifatida “kishan” obraziga ko‘p murojaat qiladi. Uning zang bosgan halqalaridan azob chekayotgan xalqini qo‘zg‘olishga chaqiradi. San‘atkorning barcha she‘rlari, hikoya va maqolalari, roman hamda dramalari o‘quvchiga ozodlik tuyg‘ularini singdirishga boy ozuqa bera oladigan asarlardir. Ularni o‘rganish, tahlil etish jarayonida yosh avlod ongida mustaqil Vatanga cheksiz muhabbat uyg‘otish mumkin. Ular mazmunan bir-birini to‘ldiradi, boyitadi, istiqlool dardi biridan ikkinchisiga kuchayib boradi, ozodlik to‘lqini po‘rtanaga aylana boradi.

Ko‘rinadiki, she‘rda qo‘llanilgan har bitta badiiy unsur katta ijtimoiy ma‘no tashiydi. Undagi har bir bayt tugal bir manzaradir. Tabiatning rangin lavhalari o‘quvchi ko‘z o‘ngida quyuqlashib, hayotning aniq suratiga aylanadi va bu manzara uni dahshatga soladi, qalbida ichki bir tug‘yon paydo qiladi. Kuzning o‘ziga xos belgilari, ranglari, ko‘rinishi haqida o‘quvchilar va talabalar bilan suhbat jarayonida aniq tasavvur hosil qilingandan keyin Sharq, G‘arb, Bo‘ron, Yoz, Kuz, Qarg‘a, Qish kabi talay ramziy timsollarning ijtimoiy ma‘nosini tushunish xiyla osonlashadi. She‘rning so‘nggi ikki misrasi juda katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shoir:

Butun borliq chog‘i o‘chish oldida,

Sovuq... qora qishga ko‘chish oldida...

der ekan, istibdod iskanjasida so‘nggi nafasini olayotgan Turkiston Sharqining ertasidan dahshatga tushadi va bu qismatdan o‘quvchini ham ogohlantiradi. Binobarin, ahvol shunday davom etaversa, erta-indin “Sovuq

qora qish”ning qahratoniga bardosh berolmay bu yurtning jon taslim qilishi aniq. Ilohim shunday kunlardan o‘zi asrasin!

Axir, bundayin dilrabo, bundayin bebaho, yulduz tushida ko‘rib oshig‘u shaydo bo‘lgan, shamol bir marta ko‘riboq aqlu hushini yo‘qotib, “tog‘u toshlar ichra istab” yuradigan, quyosh esa o‘ngida ko‘rib ishqida kuygan “Oydan-da go‘zal, kundan-da go‘zal” (“Go‘zal” musaddasi) Vatanni yer sharining qaysi nuqtasidan topib bo‘ladi?! Shuning uchun ham uni asrab qolish sharToshkent Xalq bunga qodirdir, faqat uni o‘z kuch-qudratiga ishontira bilish darkor. Chunki:

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir. (“Xalq”)

Ammo uning qudratini so‘ndirmoqdalar, oloviga suv purkamoqdalar, qullikka, mutelikka o‘rgatmoqdalar, taqdirga tan berishga majbur qilmoqdalar. Natijada bu xalq kishan bilan oshno tutinishga ko‘nikyapti, isyonkorlik ruhi tobora so‘nib boryapti, faryodni unutmoqda. Shoir uni xushyorlikka chaqirib hayqiradi:

Ko‘ngil, sen bunchalar nega

Kishanlar birla do‘stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen muncha sustlashding? («Ko‘ngil»)

Ayniqsa, ushbu she’rning oxirgi bandiga alohida urg‘u berish lozim bo‘ladi. Bir vaqtlar ingliz mustamlakachilariga qarshi istiqlol bayrog‘ini ko‘tarib chiqqan Bengal shoiri Nazrul Islom mazlum xalqiga «Tug‘ilgansan ozod, mangu ozod bo‘lib qol!» deb murojaat qilgan edi. Bu daovatni qalbiga jo qilib kurashga otlangan hind xalqi oxir oqibat yurtini bosqinchilardan xalos etdi. Cho‘lpon ham xalq istagi o‘lkani ozod qilish ekanligini anglab, unga:

Tiriksan, o‘lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsan.

Kishan kiyma, bo'yin egma

Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!

deya murojaat qiladi.

Shoirning “Buzilgan o'lkaga” (1921 yil, Andijon) she'ri o'sha davrda ham, keyin ham katta shov-shuvlarga sababchi bo'ldi. Cho'lponning boshiga ko'p qora kunlar ham aynan mana shu she'r tufayli tushdi. Chunki unda shoir o'zbek tuprog'ida ro'y berayotgan fojiali voqealarni ro'y-rost tasvirladi. O'lkada amalga oshirilayotgan nohaqliklar, adolatsizliklar, zo'ravonliklar Cho'lponning yangi hukumatdan kutgan umidlarini puchga chiqardi. Haqsizlikka qarshi ko'tarilgan xalq farzandlari ayovsiz jazolandi, bosmachilikka qarshi kurash bahonasida mehnatkash omma boshiga ne-ne qora kunlar solindi. Shoirning “Buzilgan o'lkaga” deb atalgan she'ri sarlavhasidan tortib oxirgi misrasigacha mustamlakachilarning qabih siyosatini buyuk bir jasorat bilan fosh etib tashlaydi.

“30-yillar oxirida Cho'lponning ijodini qoralovchi maqolalar ko'paya boshlaydi. Tabiiyki, ularda Cho'lponni anglashga intilishdan asar ham yo'q edi. Maqolalar go'yoki muayyan tashkilotning buyurtmasi bilan yozilganday bir-biriga juda o'xshardi. Ahvol shu darajaga yetdiki, Cho'lponning hali e'lon qilinmagan kitoblari haqida ham taqrizlar bosila boshlandi. Shunday taqrizlardan biri Tuyg'unning qalamiga mansub bo'lib, Cho'lponning hibsga olinishi arafasida, ya'ni 1937-yil 22-may kuni e'lon qilindi. Bu taqriz Cho'lponning nashriyotga topshirilgan, lekin dunyo yuzini ko'rmay qolib ketgan va shu ko'yi yo'qolgan “Jo'r” degan she'riy to'plami haqida. Shoirning “Kuzak” degan she'ridan quyidagi parcha olingan:

Mevalar shoxlardan tappa-tap tushdi,

So'niq chehra bilan yerga uyushdi.

Muzday tuproqlar shimtirashdilar,

Yetimday sarg'ayib tentirashdilar.¹

¹ A.Cho'lpon. Istiqlol qahramonlari. T., 1997, 6-bet.

Tuyg'un burjua millatchilarining ta'sirini qidirib topolmaydigan biron she'r, biron misra yo'q – u istagan ma'nodagi iboralarni o'zi istagan tomonga burib yubora oladi. Masalan, "Jo'r" she'riy to'plamiga kirgan "Bu o'lkaning ko'klami" degan she'rdan parcha keltiradi:

Bu o'lkaning ko'klami juda ham namgarchilik,
Quyosh bulutlar bilan o'ynashadi, shekillik
Qachon ko'rsam yashiringan o'yinqaroq boladay,
Meni entiktirmoqchi o'ynashib alday-alday.

Oddiy bir ko'klam manzarasi. Ammo Tuyg'un shu oddiy bir manzara tagidan kir qidirib topadi:

"Mana, ravshandirki, Cho'lpon 1936-yilda hali eski kuylarini chuqurlashtiradi. Hamon ko'klamda ko'klamni ko'rmaydi, o'zimi bulutlar qoplagan holda ko'radi. "Quyosh" unga bevafo. Qachon qarasa, uni yashiringan holda ko'radi, ko'ngli zoriqadi, entikib qoladi..."

Yuqoridagi parchadan shunaqa "siyosiy" xulosalar chiqarmoq uchun yumshoq qilib aytganda, odam noinsof bo'lmog'i kerak. Shunisi e'tiborga loyiqki, Tuyg'un Cho'lponni "fosh qilish"da juda katta jonbozlik ko'rsatgan odamlardan biri – u birgina 37-yilning o'zida gazeta va jurnallarda o'zbek va rus tillarida Cho'lponga hamda boshqa "xalq dushmanlari"ga qarshi beshtadan ortiq maqola e'lon qilgan"¹.

Shu maqsadda shoirning "Bahorni sog'indim" degan she'ridan parcha beriladi:

Tala-tuz
Ekin-tekin
So'la boshladi.
Sarg'ayib yaproq,
Bo'yanib tuproq

¹ Sharafiddinov Ozod. – "Ijodni anglash baxti", T.: "Sharq"-2004. 45-46-b.

O‘la boshladi, o‘la boshladi.

Bu parcha quyidagicha sharhlanadi: “U dalani tuz, achchiq, zahar deb hayotda faqat yo‘qolishni ko‘radi”.

Buni o‘qib kulishingni ham, yig‘lashingni ham bilmaysan kishi. Muallifning “fosh qilish jazavasi” shu qadar jo‘sh urib ketganki, she‘rdagi “tuz” ovqatga ishlatiladigan “namak” emas, “yalanglik, kenglik” degan ma’noda ekanligini xayollariga ham keltirmaydilar. Boringki, “tuz” ular aytganidek, “namak” ham bo‘la qolsin. Nega endi ovqatga ta‘m kiritadigan namak “achchiq” yoxud “zahar”ni anglatishi kerak?

Ikkinchidan, mualliflar shu she‘rning davomini o‘qishdan erinmasalar amin bo‘lardilarki, shoir “hayotda faqat yo‘qolishni ko‘rayotgani” yo‘q. Mana, o‘sha she‘rning davomi:

Yo‘q... o‘lim yo‘qdir!

Yolg‘iz bir o‘chib, bir so‘nish bordir.

Bir o‘chib...so‘nib, yana yonish bor

Yana bahorlar,

Yana lolalar.

Yana siz, oy... erkin tilaklar!

Ko‘rinadiki, mualliflar she‘rni, umuman, tushunmagan yoxud undan o‘zlarining maqsadlariga mos keladigan bir bo‘lakni ajratib olishganu, “she‘rning qolganini boshqalar hech qachon o‘qimaydi” degan ishonch bilan yuqoridagi ig‘voni to‘qiganlar”¹.

“Cho‘lpon ijodi bilan tanishganda, xususan, uning maqolalarini o‘qiganda bularning bari behayolarcha tuhmatdan, ashaddiy bo‘htondan boshqa narsa emasligiga ishonch hosil qilamiz. Aksincha, Cho‘lponning butun ijodi kabi adabiy-tanqidiy maqolalari ham shundan dalolat beradiki, shoir hamma xalqlarni birday hurmat qiladigan, ularning madaniy boyliklarini qadrlaydigan, an‘analarini e‘zozlaydigan chinakam

¹ Sharafiddinov Ozod. – “Ijodni anglash baxti”, T.: “Sharq”-2004. 56-57 b.

baynalmilalchi inson bo'lgan. U maqolalarida turli xalqlarning adabiyotdagi yutuqlarini, san'atdagi muvaffaqiyatlarini quvonib, yayrab targ'ib qilgan. Cho'lpon tur va hindilar, ozorlar va tatarlar, forslar va tojiklar haqida qanday ehtirom bilan qalam tebratsa, ruslar haqida ham, italyan, fransuz, ingliz, xitoy adbiyotining namoyandalari va namunalari to'g'risida ham shunday to'liqlanib, hayajonlanib, to'lib-toshib yozgan. U faqat Pushkin yoki Tolstoy kabi klassiklar, yoki Meerxold va Maxtangov kabi ulug' rejissorlar to'g'risidagina emas, Gorkiy, Leonid Andreyev, Lidiya Sayfullina kabi adiblar haqida ham maroq bilan qalam tebratgan. Shunday ekan, turli xalqlarga, ularning madaniyatiga, o'zining hurmat-ehtiromini namoyon etayotgan odamni millatchi deb bo'ladimi? Yo'q albatta.

Eng muhimi shundaki, Cho'lpon o'zbek adabiyotining istiqboli haqida qayg'urar ekan, uni dunyoning ilg'or adabiyotlari qatoriga ko'tarish yo'llarini o'ylar ekan, bu yo'lni faqat bir narsada – ham G'arb, ham Sharq adabiyotidagi yetakchi an'analarni ijodiy o'zlashtirishda, ularning boy tajribalariga tayanib ish yuritishda deb biladi”².

Cho'pon o'zbek adabiyotida faqat lirik shoir hamda mohir yozuvchi sifatidagina emas, balki iste'dodli dramaturg sifatida ham shuhrat qozongan. Uning “Xalil farang”, “Yorqinoy”, “Zamona xotuni”, “O'rtoq Qarshiboyev” kabi dramalari bu janrning yaxshi namunalari sanaladi. “Yorqinoy” dramasi maktab o'quvchilariga mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan. Bu drama 20-30-yillar oralig'ida uch marotaba sahnalashtirilgan va Cho'lpon har safar asarini mukammallashtira borgan. Gap shundaki, Cho'lpon bu paytda Yevropa dramaturgiyasining sirlarini ancha puxta o'zlashtirgan, Shekspir, Lope de Vega, Karlo Gotssi, Gorkiy singari buyuk san'atkorlarning dramalarini o'zbek tiliga muvaffaqiyat bilan tarjima qilgandi. Bu ijodiy o'rganishning ijobiy ta'siri uning asarlarini mukammallik bosqichiga ko'tardi. Cho'lpon nafaqat o'z she'rlari bilan birga shuhrat qozondi, balki o'z

² Sharafiddinov Ozod. – “Ijodni anglash baxti”, T.: “Sharq”-2004. 79-80 b.

dramalarida ham davr ziddiyatlarini ochib bergan. Jumladan, “Yorqinoy” dramasi voqeligi xalq ogʻzaki ijodidan unib chiqqan. Oʻlmas botir degan sarkardaning xizmatkori Poʻlat oʻz xoʻjayinining qizi Yorqinoy bilan sevrishib qoladi. Ular bu sevgi yoʻlidagi toʻsiqlarni mardona yengib, murod-maqсадlariga yetadilar. Ammo bu osonlikcha roʻy bermaydi, sevgi uchun kurash bora-bora or-nomus, inson shaʼni, oila nomusi uchun kurash nuqtasiga koʻtariladi va ezgulik gʻolib chiqadi.

Shu paytgacha Choʻlpon dramalari qatorida “Mushtumzoʻr” degan asari ham tilga olinardi. Maʼlum boʻlishicha, bu asar aslida “Zamona xotuni” dramasi sahna varianti ekan. Eʼtiqodli adib M.Muhamedovning arxividan topilgan “Zamona xotuni” dramasi 20-yillar oxirida ulkan sanatkor Mannon Uygʻur tomonidan “Mushtumzoʻr” nomi bilan sahnalashtirilgan ekan. Akademik S.Mamajonov bu asarni arab yozuvidan kirill alfavitiga oʻgirib, “Sharq yulduzi” jurnalida eʼlon qildi.

Choʻlpon ijodini kuzatganda, uning millat ozodligi, maʼnaviyati va maʼrifati uchun fidoiylilik koʻrsatgan shoir ekanligini anglab yetishimiz mumkin.

Yurtimiz har bir inson qalbida va sheʼrlarning koʻrinmas yaproq va shoxlarida Vatan deya atalgan ulugʻ neʼmatni qadrlash, ozodlik va mustaqillik gʻoyalarini qalamga olish har bir yozuvchining qalbiga soʻnmas olov misoli yurak taftini qizdirib turdi. Yozuvchi shoirlarimiz oʻz asarlarida Vatan yurt ozodligini goh yashirin, goh oshkora tarzda ifodaladilar.

Jumladan, biz tariximizning XX asrning boshlari va 30-yillargacha boʻlgan tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, ozodlik uchun juda koʻp kurashlar boʻlganligini taʼkidlashimiz mumkin. Shunday kurashlarning biri haqida gapirib oʻtamiz. Dukchi eshon qoʻzgʻoloni bu qoʻzgʻolonda xalqimizning asl farzandlari osilgan boʻlsada, lekin hech birining qalbida yurt ozodligi, faravonligi tushunchalari soʻnmagan. Ular tomirlarida soʻnggi tomchi qon qolguncha kurashga tayyor turadigan mardonavor mard jasur

kishilar timsolida gavdalanadi. Ularning shiddatli, keskir qalb tugʻyonlarida Vatan tushunchalari muhrlangan edi. Bu tugʻyonlar ularning keyingi avlod – elimizning asl farzandlarining qalbiga koʻchdi.

Aynan biz tilga oladigan tarixiy davrning davomchilarining saʼy harakatlari keyinchalik boʻy koʻrsata boshladi. XX asr boshlarida xalqni maʼrifat orqali ozodlikka olib, chiqish uchun ilmi-urfon adabiyot va sanʼat jabhalarida boshlagan kurash Vatanimiz hududida jadidchilik harakatining rivojlantirishga sabab boʻldi. Ushbu oʻrinda biz, boshqalar B.Alimovning quyidagi ibratli fikrlarini keltiramiz: “Biz bugun jadidchilik harakati deb gʻurur bilan baralla aytadigan ijtimoiy hodisa bugungi istiqlolimiz uchun oʻsha davrlardan oq kurash boshlangan edi”¹.

Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulhamid Sulaymon Choʻlpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy singari fidoyilari xalqni xat savodli qilish maʼrifatli vatanparvarlarga aylantirishga kamarbasta boʻldilar. Jadidchilik harakati bir zum boʻlsada toʻxtagani yoʻq. XX asrning 20-30-yillarida xalqni ozodlikka tayyorlash, uning ruhiga Vatan tuygʻusini singdirilishi, taʼbir joiz boʻlsa, uni maʼnaviy ruhiy jihatdan bunga tayyorlash ishlari davom etdi.

Xalq ruhiga ozodlik vatanparvarlik tuygʻularini singdirishda sheʼriyatning roli va oʻrni beqiyos. Sheʼriyat oʻziga xos mavzu va gʻoyalar orqali ohanglar vositasida kishi ruhiyatida shunday bir tuygʻular uygʻotadiki, ularni qilich yoki yadro qurollari bilan ham yoʻq qilib boʻlmaydi. 30-yillar adabiyot xususan Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon, A.Fitrat, A.Qodiriy asarlari xalq ruhiga shunday vatanparvarlik tuygʻularini joylab ulgurdi.

Biz yuqorida tilga olgan buyuk ijodkorlar orasida Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon xalqimizning erki va ozodligi yoʻlida iymon eʼtiqod timsoliga aylandi. Shoir goʻzal Turkistonni mustaqil, erkin holda koʻrishni shu qadar orzu qildiki, tuzum mafkurachilari uning ogʻzini berkitib, nafaqasini

¹ B.Alimov. Istiqlol fidoyilari. T., 1993, 3-bet.

chiqarmay turganida ham o‘zining o‘lmas satrli ozodlik ruhi bilan sug‘orilgan “Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki sen ham hur tug‘ulgansen”, - deya millatdoshlarni, eldoshlar va yurtdoshlarni kurashga chorlabgina qolmay balki uning o‘zi ham bu kurashning rahnomasiga aylandi. U oxir oqibatda o‘zi uchun muqaddas hisoblangan Vatan uchun, jondan ortiq sevgan xalq uchun jon fido qildi.

Cho‘lpon o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga ko‘targan asl shoir bo‘lib darsligimizning zarhal harflar bilan beradi. U adabiyotda she‘riyatimizni yangidan modernizatsiya qildi. “Cho‘lpon qalbidagi eng oliy niyat turon elida bosqinchiga qul bo‘lmaslik, milliy mustaqillikka erishish alangasida ekanligini payqab qolish qiyin emas”¹.

1927-yili tuzum mafkurasilarning hujumidan Cho‘lponni himoya qilishga urungan tirishqoq va bilimli bir so‘z bilan aytganda hassos shoir Muso Toshmuhamedov Oybek quyidagi fikrlarni bildirgan edi. “Cho‘lpon yangi adabiyotda yangi narsalarni yaratdi. Muvashshah adabiyoti o‘rniga bu kunning badiiy zavqiga yarasha yoqimli go‘zal she‘rlarni o‘rtaga chiqardi. Bugungi yosh uning sodda tilni totli uslubini texnikasini ko‘p sevadi. Undan ko‘p go‘zalliklar oladi”¹.

Cho‘lponning o‘zbek she‘riyatiga qilgan xizmatlari haqidagi gaplarni Oybek vaziyat taqozosiga ko‘ra, har holda ehtiyotkorlik bilan aytgan edi. Cho‘lpon o‘zbek she‘riyatini o‘zgacha, misli ko‘rilmagan yangi yo‘lga solib yubordi, u o‘zbek nazmida Yevropa she‘riyatini ijodiy payvand qilgan holda XX asr o‘zbek milliy she‘riyatiga asos soldi degan bo‘lur edi.

Cho‘lponning o‘zi ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlash uchun quyidagicha yozadi: “Qo‘lim qaltirasa ham, yuragim o‘ynasada, qudratim yetmasa ham o‘sha “Sharq va G‘arb o‘rtasidagi oltin ko‘prikni elimga tanitmoqchi bo‘ldim”².

¹ Aliyev A. Ma‘naviyat qadriyat va badiyat. T.: “Akademiya”, 2000, 476-bet.

¹ Cho‘lpon A. Istiqloq qahramonlari. T., 1997, 6-bet.

² Cho‘lpon A. Go‘zal Turkiston so‘z boshisidan. 1997, 7-bet.

O'zbek jadid adabiyoti vakillari ijodiga xos bo'lgan xususiyatlar asarlarida xususan she'riy asarlarni puxta o'rganishni tahlil qilishni davr talabi darajasiga ko'tarmoqda. Jadid adabiyotining yirik vakili Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'riyatini o'rganish ulardagi mavzular g'oyalar va tasvirlangan shoirning tabiat ilhomini tahlil qilish ana shu she'rlaridagi tabiat tasviri bo'ladimi yoki boshqa mavzudagi she'rlarni ularning zamiridagi asl ma'noni aniqlash shu asnosida bo'lajak avlod tafakkurini o'stirish, ularni ma'naviy ruhiy jihatdan yuksaltirish va badiiy san'atlarga qo'yib o'rganish she'riyatimizda Cho'lpon she'riyati alohida o'rin tutadi.

Turkistonda urush-janjallar, to'ntarish, qatag'onlar milliy uyg'onish davrida o'zbek adabiyotining rivojlanishi orqada qolib, deyarli rivojlanmadi, bee'tibor bo'lishib sust qarashdi. Umuman bu davr adabiyotini o'rganishga e'tibor berilmadi. Bu haqda Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari to'plamining kirish qismida quyidashi fikrlarni keltiramiz. "Hatto bu davr bir vaqtlar nomsiz edi. Adabiyot tarixi davrida bu davr alohida bosqich sifatida ajratilmas edi. "So'nggiroq bu davr noo'rin ravishda" mustamlaka davri adabiyoti", "burjua jadid adabiyoti" nomi bilan yuritila boshladi". (Bugungi kunda bu adabiyot davri Yangi o'zbek adabiyotining "Jadid adabiyoti" yoxud "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" nomi bilan ataladigan bo'ldi).

Shunday bo'lishiga qaramay o'zbek adabiyotining bu davrining yetuk namoyondalar yaratgan asarlarning bir qismi bir qancha millatparvar jasoratli olimlarning sa'y harakatlari bilan jadid adabiyotining yetuk shoirlarning adabiy merosidan namunalar faqat hukmron mafkura notalariga mos ravishda bo'lsa ham ularning merosi o'quvchilarga yetkazib berildi. Bundan tashqari o'sha zamon adabiy muhiti vakili bo'lgan ijodkorlar asarlari o'sha totalitar tuzum mafkurasi ruhida talqin qilindi.

O'sha davrda yashagan buyuk shoirlarimizdan biri "Jadid adabiyoti" namoyondalari ijodida ularning qilayotgan ishlari kuzatib ko'plab maqolalar

yozildi. Shunday maqolalarning yozilishida O‘zbekiston xalq shoiri Hamid Olimjon xizmatlari beqiyosdir. “Jadid adabiyoti”ning paydo bo‘lishi va o‘ziga xos jihatlari g‘oyaviy badiiy xususiyatlardan keng ma’lumot beruvchi “Jadid adabiyotining sinfiy mohiyati masalasiga”, “Fitratning adabiy ijodiy olami to‘g‘risida” maqolalari yaratildi. Bu maqolalarda muayyan ijodkorning hayot faoliyati ijodi asarlari ko‘proq sotsialistik mafkura ruhida tahlil qilindi.

Bu davr ijodkorlari xalqni uyg‘onishga mustaqillikka chorlovchi asarlar yaratdilar. Buning oqibatida ularning hayotining musaffo osmoni ustiga qora bulutlar kela boshladi. Oxir oqibatda ular qatag‘on qilinib qatl qilindi. Shuning bilan ularning ijodi to‘xtatildi. Lekin ularning asarlarini go‘yoki yo‘q qilindi. Afsuski, bu asarlar o‘zbek adabiyotida bir muddatda o‘rganilmadi, ularning ijodiga e’tibor ham susaydi.

Xullas, ushbu bitiruv malakaviy ishda tahlil doirasiga tortgan Cho‘lpon singari adiblarimiz millatni ma’rifatli qilish, jaholat botqog‘idan qutqarib, taraqqiyot osmoniga ko‘tarish uchun olib borilgan kurashlari yo‘lida qurbon bo‘ldilar. Shunga qaramay, Cho‘lpon o‘z davri ma’naviyati va san’ati osmonining yorug‘ yulduzlariga aylanib, ayni kunlarda ham mustaqil yurtimiz osmonida mo‘l-ko‘l nur sohib, charaqlab turibdilar. Endigi vazifa bu yulduzlarning so‘nmas nurlaridan ko‘proq bahramand bo‘lish, kelajagimizni yoritish, ularning ilmiy, adabiy merosini chuqur o‘rganish, keng xalq ommasi orasida targ‘ib etishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

O‘zining har bir asari bilan Cho‘lpon xalqimiz uchun og‘ir sinov davri hisoblangan 20-30 yillarda chin vatanparvar, haqiqiy istiqlool kuychisi va kurashchisi sifatida namoyon bo‘ldi. Bugun uning qadriga yetish, ardoqlash, vasiyatlarini amalga oshirib, mustaqilligimizni mustahkamlash biz, farzandlarining muqaddas burchidir.

Cho‘lpon yillar, asrlar o‘tgan sari qadri va qimmatini oshib boraveradigan noyob xazinadir. Undan har kim o‘z nasibasi va ehtiyojiga yarasha rizqini

ushatib olaveradi. Bundan esa xazinaning boyligi aslo kamayib qolmaydi, bil'aks, ko'payadi xolos. Shoir aytganidek:

Azaliy haq gapni yashirmoq nechun,
Zavol yo'q eng asl iste'dod uchun.
Agarda koinot tegirmon bo'lib,
Olamni yanchsa ham qolgay u butun.

(Abdulla Oripov)¹

Bular shuni ko'rsatadiki, ulkan san'atkor Cho'lponning adabiy merosi hanuzgacha to'la jamlangan emas. Hali uning yangi asarlari topilishidan umidvormiz.

Ko'rib o'tganimizdek, yangi o'zbek adabiyoti ijodkorlarining she'rlari sodda yozilgan. Ularda jimjimador so'zlar, burama, aylanma, mavhum fikrlar yo'q. Lekin yurakka yaqin, kishi tuyg'usiga ta'sir qiladi, bir holatdan ikkinchi holatga soladi. Ha, bekorga soddalikda ulug'lik mujassam deyilmagan.

Cho'lpon lirikasining asosiy mavzui mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan isyondir. Uning ishqiy she'rlarida esa soch obrazi muhim ma'no tashiydi. Cho'lpon o'zining betakror asarlari bilan XX asr adabiyotiga ulkan hissa qo'shdi. U adabiyotni "o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi" deb atagan edi. Shoirning eng sara asarlarini o'zida jamlagan "Yana oldim sozimni" kitobi 1991-yilda nashr etildi. Shu yili yanga ta'sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi mukofotning dastlabki sohiblaridan biri ham Cho'lpon edi. Cho'lpon o'zbek she'riyatining yorqin siymolaridan edi, shu bois o'tkinchi bulutlar pardasini yirtib tashlab, milliy she'riyatimiz osmonida qayta porlay boshladi.

Endi har nafasda yana kuyaman,
Faqat majnun bo'lib elni sevaman.

¹ Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. Toshkent, "Yozuvchi", 1994.

Unga hurmat bilan bo'yin egaman,
Boshimni u uchun dorga qo'yaman.

Bu haroratli misralar shoir qalamiga mansubdir. "Ko'ngil" she'rida milliy uyg'onishga da'vat, erk, hurriyatga chaqiriq ohanglari barq urib turadi, sodda she'rdir. 1922-yilda yozilgan.

Ko'ngil, sen bunchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor
Nechun sen buncha sustlashding?

Harorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?

Tiriksan, o'lmagansan
Senda odam, senda insonsen.
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!

1921-yilda "Xalq" she'rini yozadi. She'rda xalqning o'z haq – huquqini tiklashga qurbi yetishi, har qanday qarshiliklarni yengishi mumkinligini kuyunib aytadi. Tili boshqa-yu, dili boshqa siyosatchilarni ogohlantiradi.

Xalq istagi, ozod bo'lsin bu o'lka,
Ketsin uning boshidagi ko'lanka.
Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar.
Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar,
O'z yurtini har narsaga to'q etar ...¹

¹ Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. -Toshkent:O'qituvchi, 1997. -28 b.

“Kuz” , “Men va boshqalar”, “Go‘zal” kabi she‘rlari barchaning diqqatini o‘ziga tortadi.

Cho‘lpon o‘z she‘rlarida ko‘chimdan unumli foydalanadi. “Buzilgan o‘lkaga”, “Binafsha” ...

Binafsha – shoirning ichki kechinmalari bahoriy ko‘katga, yoki nimagadir qaratilgan ko‘chim.

Eng ko‘p ishlatiladigan badiiy vositalar jami bo‘lib, adabiyotshunoslik fanida metafora atamasi bilan ham yuritiladi. Grek tilidan olingan metafora so‘zi ko‘chim, ko‘chirilish ma’nolarini anglatadi.

Ko‘chim ko‘rinishlari:

Istiora – o‘xshatish.

Ramz – timsol, simvol – o‘zbek adabiyotida:

May – hayot ramzi;

Gul – ma’shuqa ramzi;

Burgut – mag‘rurlik;

Chumoli – mehnatsevarlik.

Majoz – adabiy asarda o‘quvchiga noaniqroq bo‘lgan tushunchani ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash.

O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so‘nggina Cho‘lpon adabiyotimiz saflariga qaytdi.

Uning ehtirosli, jo‘shqin, teran asarlari bugungi kunimizda juda hamohang.

Cho‘lpon she‘riyati hech kimga o‘xshamagan samimiylik, jozibador, ta’sirchanligi, tuyg‘ularini ranginligi bilan o‘zgalarnikidan ajralib turadigan she‘riy olam yarata bildi.

Cho‘lponning ijodi ancha vaqt o‘quvchilardan berkitib kelindi.

Cho‘lpon tabiati lirik shoir edi. Ammo u yashagan davr shoirdan lirik qahramonning ruhiy olamidagi jilvalardan ko‘ra xalq va mamlakat hayotidagi

holatlarni tasvirlashni ko‘proq taqozo etdi. Shuning uchun ham Cho‘lpon siyosiy va ijtimoiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan she‘rlarni ko‘proq yozdi va biz Cho‘lponni eng avvalo «Ko‘ngil», «Kurash», «Kishan», «Vijdon erki» singari she‘rlar muallifi sifatida bilamiz.

Cho‘lponning dramaturgik ijodi to‘g‘risida baho berganda, adabiyot va teatrshunos olimlar odatda uning “Mushtumzo‘r”, “O‘rtoq Karimboyev”, “Yorqinoy” va “Hujum” pesalarini tilga oladilar. Garchand dastlabki ikki pesaning matni hozircha topilmagan bo‘lsa-da, bu asarlarning 1928-1929-yillarda O‘zbek Davlat drama teatri sahnasida qo‘yilgani to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud.

Cho‘lpon shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publisist bo‘lish bilan birga barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o‘ziga xos qarashlarga ega san‘atshunos ham edi.

Yosh cho‘lponshunos N.Yo‘ldoshev birinchi marta Cho‘lpon maqolalarining ro‘yxatini tuzib, bibliografiyasini e‘lon qildi. Unda ko‘rsatilishicha, shoirning 1914-1937-yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarining soni 63 tadir. Shu dalilning o‘ziyoq Cho‘lponni munaqqid sifatida o‘rganish imkonini kengaytiradi.

Cho‘lponshunos O.Sharafiddinovning 1991-yilda bosilib chiqqan “Cho‘lpon” risolasining beshinchi bobi adibning munaqqidlik va tarjimonlik faoliyatiga bag‘ishlangan. Uning 1993-yilda “Istiqlol fidoyilari” turkumida chiqqan “Mustafo Cho‘qay, Cho‘lpon, Otajon Hoshim” kitobchasida ham Cho‘lponning munaqqidlik faoliyati bir qadar kengroq tahlil qilingan. U. Sultonov esa 1993-yilda “Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari” mavzusida nomzodlik dissertasiyasini yoqladi.

Cho‘lpon adabiyotning inson ruhiyati bilan bog‘liq hodisa deb qaraydi: “Adabiyot chin ma‘nosi ila o‘lg‘an, so‘lg‘an, o‘chg‘an, majruh yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singigan qora balchiqlarni tozalaydurg‘on, o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on,

toza maʼrifat suvi, xiralashgan oynalarni yorugʻ va ravshan qiladurgʻon, chang va tuproqlar toʻlgan koʻzlarimizni artub tozalaydurgʻon buloq suvi boʻlganlikdan bizgʻa gʻoyat kerakdur”.

Choʻlponning “chin adabiyot” uchun kurashdagi faol xizmatlarini “Sadoi Turkiston”ning 1915-yil 6 - fevral sonida chop etilgan, “Chigʻatoy gurungi” toʻgaragining faol aʼzosi boʻlganligi va uni himoya etib yozgan maqolasi ham tasdiqlaydi. Maqolalarning birida adabiyotning “tugallanishi”, yaʼni takomillashishiga katta eʼtibor berib, bunga “adabiyotga kira olmagan narsalarni shafqatsiz surʼatda maydondan haydash” bilan va badiiy asar tilini soddalashtirish orqali erishiladi deb hisoblaydi.

Choʻlponning “Maorif va oʻqitgʻuchi” jurnalining 1925 qoʻshma 7-8 sonida chop etilgan “Ulugʻ hindi” maqolasi toza fikrlarga sugʻorilganligi bilan favqulodda qimmatga ega. Keyinroq uning R. Thokurga bagʻ ishlangan yana bir maqolasi eʼlon qilindi. Choʻlpon R. Thokur bahonasida oʻzbek adabiyotining rivoji qanday yoʻldan borishi kerakligi haqida qimmatli mulohazalarini bayon qiladi. “Yoʻlsizlik”dan qutilishning chorasini izlaydi, uni mumtoz adabiyot vakillarining ijodi ham, hozirgi adabiyot ham qoniqtirmaydi.

Shunday qilib, Choʻlpon 20-yillardagi bir qancha maqolalarida tilga olingan va ”Ulugʻ hindi” maqolasida ancha toʻliq ifodalangan masala – yangi davr adabiyotini yaratish masalasi edi. Ammo Choʻlponning harakatlari zoye ketdi, davr chinakam sanʼat yaratishga emas, hukmron mafkura yoʻliga, shu mafkura temir qolipiga tushib kelayotgan edi. Choʻlpon adabiy meros, mumtoz ijodkorlar haqida yozgan maqolalarida oʻzining oʻtmish va klassiklar bilan faxrlanuvchi millatparvar ekanligini ham koʻrsata olgan edi.

Choʻlponning adabiyotshunos sifatidagi qiziqish doirasi faqat oʻzbek adabiyoti yoki Sharq bilan chegaralanib qolgan emas. U oʻz xalqini yevropa adabiyotining eng mumtoz namunalari bilan tanishtirishga harakat qilardi. U Karlo Gossi va uning “Malikai Turandot” asari haqida, buyuk fransuz

dramaturgi, klassisizm oqimining asoschisi Molyer to'g'risida maqolalar yozdiki, bular Cho'lponning bilim qamrovi keng munaqqid ekanligidan dalolat beradi.

Cho'lpon o'z davrida teatr tanqidchisi sifatida maydonga chiqdi. U Fitratning "Chin sevish" va "Abo Muslim" dramalariga taqriz yozdi. Bularda ikki muammo:

- 1) asarning badiiy – estetik qimmati;
- 2) sahna ijodiyotining ahvoliga munosabat ko'zga yaqqol tashlanadi.

Chunonchi, tanqidchi "Chin sevish" haqida yozar ekan, muallif ijodini baholashda faxru fazl usulidan foydalanib, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Yaqinda o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak va go'zal bir tomosha ko'rdi... tanqid va taqriz qilishni ien bajara olmayman. Biroq bu to'g'rida yozmoqlik menga tushganligidan ko'p chuqur bo'lmagan qarashni yozib ketaman".

Shoir Sharq tarixi va taqdirida nihoyatda murakkab, chigal jumboqlar borligi, uni ochmoq uchun tayyorlanish kerakligiga ishora qiladi. Bu borada shoir "Yorug' yulduzga" degan she'r yozadi. Bu she'rda shoirning niyati ko'ngil va orzular armoni tarzida aks etadi, Sharq taqdiri lirik qahramon hayot-mamoti bilan bog'liq ekanligiga ishora qilinadi. Lirik qahramon yulduzga qarab xitob qiladi:

Go'zal yulduz, nurli yulduz, tez so'zla,
Otalarning tarixdagi jafosin,
Shul xatodan afsuslanib, yovlarning
El ko'ksida surgan ishrat, safosin.
So'zla, anglat o'tgandagi turmushning
Butun qonli, shonli jonli yerlarin
Ko'z oldimda jilvalanur yurt uchun,
Jonlar berib, qonlar to'kkan erlaring.¹

¹ Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. -Toshkent:O'qituvchi, 1997. -30 b.

Choʻlponning 20-yillar poeziyasida Sharq va Gʻarbning umumlashma timsollari, obrazlari koʻplab uchraydi. Sharq va Gʻarb shoir ijodida bir-biriga qarama-qarshi. Biri ikkinchisi ustidan hukmronlik qilishga intiluvchi, biri ikkinchisini xoʻrlab, zoʻrlab hayot kechirayotgan zulm va nohaqlik timsoli sifatida gavdalanadi.

Choʻlponning ijodiy uslubini belgilashda uning millat va mamlakat hayoti, taqdiri va istiqbolini ifodalovchi gʻoyalar, mavzularning badiiy-estetik talqinini voqelikka estetik munosabat qonuniyati asosida tahlil qiladi. Choʻlpon qaysi mavzu, muammoga qoʻl urmasin, u Sharq va Gʻarb muammolari boʻladimi, tabiat manzarasimi, ishq-muhabbat kechinmalarimi, millat tarixi yoki istiqbolimi, erk orzusimi – barchasida shoir millatparvar lirik qahramon siymosida namoyon boʻladi. Chunonchi, Choʻlponning “Poʻrtana” sheʼri erk sari intilgan lirik qahramonning qalb nidosi boʻlib jaranglaydi. Bu sheʼrda shoir ikkita muhim masalaga oʻquvchi diqqatini tortadi: birinchidan, millat va mamlakat hayotida, butun dunyoda roʻy berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga ishora bor. Choʻlpon sheʼriyatidagi nafosatga yoʻgʻrilgan badiiy gʻoyaning kuchi shundaki, u oʻz qalbida tugʻilgan kechinmalar qurtagini atrofdagi barcha jonli va jonsiz narsalarga, insoniy dard va orzularga payvand qiladi, singdiradi va bu ruhiy jarayondan oʻzi ham kuch olib yangi manzil, yangi mavzu, yangi tuygʻular sari intiladi. Choʻlpon poeziyasi oʻquvchini loqayd qoldirmaydi, oʻzligini anglashga, oʻzini - “Men erkinmanmi? Nega? Nima uchun?” - degan savollarga javob izlashga majbur qiladi.

Maʼlumki, Choʻlpon poeziyasi xalqchilligi va milliyligini belgilovchi mavzu, motiv va jihatlar xilma-xil. Masalan, shoir yashagan davrda yoshlarning savodi va istiqboli, oʻzbek xotin-qizlarining taqdiri masalasi millat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammo edi. Xotin-qizlar taqdiri va nafosatiga bagʻishlangan sheʼrlarda Choʻlpon tabiat moʻjizasi sanalmish

ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg`ab oladi va shoh satrlarga joylaydi. “Sharq qizi”, “Men va boshqalar”, “Qiz qo‘shig‘I”, “Er asiralari”, “Paranji”, “Kelinchak”, “Zangbuning qizi” kabi she‘rlar bunga yorqin misol bo‘ladi. Shuningdek, shoir ijodining xalqchilligi uning muhabbat taronalarida ko‘zga yaqqol tashlanadi, muhabbat mavzusidagi she‘rlar shoirning poetik dahosi, uslubi va obrazli tafakkuri naqadar ko‘pqirrali ekaniga yorqin misol bo‘la oladi. Cho‘lpon uslubi klassik shoirlarning xayolot bilan chirmashib ketgan uslubidan ham, sub‘ektiv kechinmalar bilan o‘ralashuvchi poetik ehtirosdan ham ajralib turuvchi, real kechinmalarning tafti va hayajonlarini ifodalovchi, oyog‘i yerga mahkam qo‘yilgan, ammo nigohi olis-olislarga qaratilgan lirik qahramon obrazini namoyon qiluvchi romantik uslub edi.

Cho‘lpon she‘riyatidagi lirik qahramon xayoldagi yoki afsonaviy go‘zalni emas, hayotiy, jonli go‘zalni sevadi. Bu sevgi obrazlar ta’sirida tug‘ilgan va hayotiy siymo shaklida gavdalanadi. Lirik qahramonning sevgilisi “oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal”. Jumladan, D.Quronovning “Go‘zal” xususidagi quyidagi fikrini keltiradi: “Cho‘lpon she‘rni 1919 yil fevralida – Boshqirtistondan endigina qaytgan, milliy ozodlikka bog‘lagan umidlarida bir bora aldangan, biroq endi o‘sha maqsadni diliga tukkan holda matbuotida ishlay boshlagan bir paytda yozgan edi. Shoir dilidagi milliy istiqlool orzusi uning ijtimoiy-estetik ideali maqomiga ko‘tarilgan edi. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, “ma’shuqa” Cho‘lpon uchun milliy ozodlik ramzi edi, shu bois ham shoir uni boshqa hamma narsadan ustun qo‘yadi. Kontekst doirasini biroz kengaytiraylik-da, Cho‘lponning butun hayoti o‘z ideali – milliy istiqloлга intilib yashashdan iborat bo‘ldi, degan to‘xtamga kelaylik”¹

¹ Quronov Dilmurod. Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi. -Toshkent:O‘qituvchi, 1997. -30 b.

X U L O S A

Xalqimiz ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodini estetik tafakkurning o'ziga xos g'oyaviy-badiiy in'ikosi deyish mumkin. Zero, ma'rifatchilik harakati va jadid adabiyoti Turkistonning XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida estetik vazifani bajardi. Bu davrda badiiy jarayonning mavzu doiralari kengaydi, adabiyot va san'at bevosita millat va mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq voqealarni aks ettira boshladi.

Badiiy adabiyot - inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan "mehnat faoliyati", "ruhiy faoliyat", "estetik faoliyat" kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o'zi "aqliy", "hissiy", "ruhoniylar" faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shunday ekan, badiiy adabiyotni ta'riflashda beryoqlamalikka yo'l qo'yish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san'at hodisasi sifatida tushunish predmetning mohiyatini jo'nlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan uzoqlashtiradi.

XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-adabiy muhit yangicha fikrlaydigan, millat va mamlakat taqdiriga befarq qaramaydigan ijodkorlarni shakllantirdi. Cho'lpon ana shu muhitda ulg'ayib, so'ngra o'zining yangi ijodiy yo'li va obrazlar dunyosiga hamda mustaqil estetik qarashlariga ega bo'lgan ijodkor sifatida namoyon bo'ldi. U o'zbek xalqining XX asr birinchi yarmida ijod qilgan adiblari orasida original badiiy ifoda imkoniyatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tarixda qoldi, Sharq va G'arb badiiy tafakkurining romantik chashmalaridan bahramand bo'lgani holda badiiy ijodda serqirra va sermazmun ma'naviy meros qoldirdi.

Cho'lpon ilmiy-ma'rifiy merosimiz uchun "Kecha va kunduz" singari ajoyib roman, "Yorqinoy" kabi romantik drama qoldirgan bo'lsada, u asosan, ruhiyat shoiri, orzular kuychisi, erksevar adib sifatida mashhurdir. Uning

estetik qarashlari asosan poeziyasida, ijodiy uslubidagi romantik tasvir vositalari esa erk, istiqloq, ozodlik kabi ulugʻvor gʻoyalar bilan sugʻorilgan ijodiy faoliyatida aks etadi.

Abdulhamid Choʻlpon Sharq mumtoz sheʼriyatida aks etgan voqelikdagi ruh, tuygʻu va gʻoyalar ifodasini ramziy obrazlar, tashbehlar va tasvirlar orqali berishga asoslangan romantik ifoda uslubini XX asr ijtimoiy-tarixiy voqealarini aks ettirishda qoʻlladi va bu uslubda original asarlar yaratishga erishdi.

“Sharq” va “Gʻarb” obrazlariga bagʻishlangan sheʼrlarining romantik uslubida shoirning vatanparvarlik jasorati, xususan, Sharq timsolidagi Turkiston xalqlarining iztirobi va mustaqillik uchun kurashga chorlovchi chaqiriqlar poetik ohang va ijtimoiy-falsafiy gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgan.

Choʻlpon badiiy-estetik olami tor mahalliychilik va millatchilikdan koʻra, xalq maʼnaviyatini yuksaltirish, uni jahon estetik madaniyatidan bahramand etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uygʻunlashtirishga qaratilgan. U madaniyatlar taraqqiyotidagi eng asosiy estetik tamoyil – bu xalqlar va mamlakatlar estetik merosining oʻzaro taʼsiri va boyishidir, deb bildi. Zero, Shekspirning shoh asari «Gamlet» ning Choʻlpon tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilinishi buning isbotidir.

Choʻlponning estetik qarashlari adabiyot haqida va teatr masalalariga bagʻishlab yozgan maqolalarida yanada yaqqol aks etadi. U anʼanaviy tomosha usullari bilan chegaralanib qolmasdan, zamonning ilgʻor teatr maktablaridan, ayniqsa, Moskva teatr arboblari mahoratidan oʻrganish lozimligini uqtiradi.

Choʻlpon poetik sanʼatining xalqchilligi uning xalq ruhiga, tafakkuriga yaqinligidadir. Uning poeziyasi siyqa tashbehlardan yiroqligi hamda barchaning estetik tuygʻulariga ijobiy taʼsir etishi bilan xarakterlidir. Ayniqsa, xotin-qizlar masalasiga bagʻishlangan sheʼrlari xalq laparlari, termalari ruhida yozilgan boʻlib, ularning asosiy gʻoyaviy-estetik motivi inson erki, baxti va

saodatiga asoslanadi. Bu estetik g'oyani barkamol avlodni tarbiyalashga doir olib borilayotgan ishlarning mazmuniga singdirish va bu borada amaliy tadbirlar rejasini ishlab chiqish orqali ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Cho'lpon an'anaviy tazod usulidan foydalanib tabiat manzaralariga bag'ishlangan she'rlari orqali XX asr o'zbek she'riyatiga yangilik kiritdi. Bu she'riyatning g'oyaviy-badiiy ramzi bo'lgan shoirning estetik ideali esa yurt go'zalligi va xalq kamoloti bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Cho'lpon o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida teran va haqqoniy fikrlaydigan o'tkir mulohazali munaqqidlardan biri sifatida ayricha o'ringa ega. Uning bu sohadagi merosi asrlar osha millat ravnaqiga xizmat qilaveradi.

O'zbekiston mustaqil Respublika deb e'lon qilingach, Cho'lponning o'zbek madaniyatining rivojlantirish va xalq ommasini istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga qo'shgan hissasi yuksak baholandi. Cho'lponga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va "Mustaqillik" ordeni (1999) berildi. 1997-yil Cho'lponning 100 yilligi keng nishonlanib, Andijonda Cho'lpon uy-muzeyi tashkil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. 176 bet.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor– ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. // Tafakkur jurnali, 2009, 3-son, 3-10- b.
3. Aymatov A. Cho'lpon ijodida teatr estetikasi va taraqqiyoti // Falsafa va huquq. –Toshkent, 2008. -№ 4. –85-86.
4. Aymatov A. Cho'lpon estetik dunyoqarashi shakllanishining g'oyaviy asoslari // SamDU Ilmiy Bitiruv malakaviy ishlar axborotnomasi. – Samarqand, 2008. -№4. 5-13.
5. Aymatov A. Cho'lpon askiyachilik san'ati haqida // Guliston. –Toshkent, 2008. -№6. 18-19.
6. Aymatov A. Abdulhamid Cho'lpon – qatag'on davri qurboni // Falsafa va huquq. –Toshkent, 2009. - № 4. 48-49.
7. Aymatov A. Cho'lpon - estetik g'oyalar mutafakkiri // O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2009. - № 4 -boshqalar 84-87.
8. Aymatov A. Cho'lpon estetikasining jadidchilik faoliyatida tutgan o'rni // SamDU Ilmiy Bitiruv malakaviy ishlar axborotnomasi. –Samarqand, 2009. - № 6. 3-5.
9. Aymatov A. Cho'lpon estetik qarashlarining rivojlanishida badiiy adabiyotlarning roli//Samarqand kecha va bugun (Dotsent X.M.Mamaraximovning 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari: -Samarqand, 2009. - 107-109.
10. Aymatov A. Abdulhamid Cho'lpon estetik qarashlarida globallashuv unsurlarining namoyon bo'lishi// Globallashuv, modernizatsiya va tolerantlik: muammolar, yechimlar va istiqbollar:-Toshkent, 2009.-39-40.
11. Aymatov A. Jadidchilik va Cho'lpon // Globallashuv, modernizatsiya va tolerantlik: muammolar, yechimlar va istiqbollar: -Toshkent, 2009. - 46-47.

12. Aymatov A. Jadidchilik va Choʻlpon estetikasining mafkuraviy jihatlari // Qishloq taraqqiyoti va farovonligini oshirishda agrar fanlar yutuqlarining oʻrni: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. II-qism. - Samarqand, 2009. –288-289.
13. Sharafiddinov O. Ijod yoʻli. // Yoshlik. –Toshkent: 1987. -№ 10. – 49 b.
14. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. “Sharq”. Toshkent-2004.
15. Choʻlpon - Yana oldim sozimni. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot Toshkent1991.
16. Choʻlpon - Asarlar. Uch jildlik. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot Toshkent I, II jildlar. 1994-95.
17. Sharafiddinov O. Choʻlpon. Toshkent, “Choʻlpon”, 1991.
18. Sharafiddinov O. Choʻlponni anglash. Toshkent, “Yozuvchi”, 1994.
19. Karimov N. Choʻlpon. Toshkent, “Fan”, 1991.
20. Choʻlpon. Vayronalar orasida. Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991.
21. Choʻlpon. Adabiyot nadur? Nashrga tayyorlovchi: Rustam Tojiboyev. Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1992.
22. Alimov B. Istiqlol fidoyilari. Toshkent, 1993, 3-beToshkent
23. Quronov D. Choʻlpon hayoti va ijodiy merosi. -Toshkent:Oʻqituvchi, 1997. -30 b.
24. www.ziyoneToshkentuz .

Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
talabasi Fayziyev Bobur Sobirovichning
“Cho'lpon she'riyatida davr
ziddiyatining aks etishi” mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Tarixdan ma'lumki, xalqimiz qadim davrdan boshlab ilm ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilib yashagan. XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadid adabiyoti vakillarining mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida olib borgan xayrli ishlari ma'naviyat sohiblarining qalbidan chuqur o'rin egallagan.

Ijtimoiy-ma'naviy sohalaridagi tub o'zgarishlar ajdodlarimizning ma'rifatparvarlik g'oyalarini bugungi kun nuqtai nazaridan keng yoritmoqdalar. Ayniqsa, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodining badiiy-estetik ahamiyati nihoyatda katta.

Mazkur tadqiqot kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tadqiqotning birinchi bobi “Cho'lpon ijodi va uning o'rganilishi tarixi” deb nomlangan bo'lib, dramaturg, nosir, publitsist ham iste'dodli shoir ijodi yorqinlashtirilgan.

Yosh tadqiqotchi Cho'lpon ijodiga oid manbalarni o'qib o'rgangan va undan umumlashma xulosalar chiqargan. Ishda Cho'lponning tarjimonlik mahoratini yoritishda ham adabiyot dunyosining yorug' yulduz ekanligi mehr bilan tahlil etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi “Cho'lpon she'riyati milliy uyg'onish davri mahsuli” ekanligi, o'zbek adabiyoti she'riyatini yangi shakl va mazmun ayricha ohang bilan boyitilganligi tahlilda o'z ifodasini topgan.

Cho'lponning “Xalq”, “Go'zal”, “Ko'ngil”, “Binafsha” kabi she'rlarida aks etgan davr voqeligi yorqinlashtirilgan.

XX asr 30-yillari oxirida Cho‘lpon ijodini noto‘g‘ri tahlil etuvchi munaqqidlar ko‘payganligi shoirning e‘lon qilinmagan asarlari to‘g‘risida bo‘htondan iborat materiallar chop etilganligi to‘g‘ri tahlil etilgan.

Cho‘lponning “Xalil farang”, “Yorqinoy”, “O‘rtoq Qarshiboyev” kabi dramatik asarlari Yevropa dramaturglarining sahna asarlaridan qolishmasligi va tarjima asarlarining adib ijodiga ta’siri to‘g‘ri qayd etilgan. “Ko‘ngil” she’rida xalqimizning milliy uyg‘onishga da’vati, erk, hurriyatga tashnaligi dalillar bilan to‘ldirilgan.

Bitiruv malakaviy ishini tugallangan deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

f.f.d. A.Xolmurodov

**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek
filologiyasi fakulteti bitiruvchi kurs talabasi
Fayziyev Bobur Sobirovichning "Cho'lpon
she'riyatida davr ziddiyatining aks etishi"
mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Talaba Fayziyev Boburning Cho'lpon she'riyatida davr ziddiyatining aks etishi" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi quyidagi jihatlarni o'rganganligi bilan ahamiyatli: birinchidan, XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunoslik ilmining yuzaga kelishi bevosita jadid adabiyoti bilan bog'liqligi, ikkinchidan, adabiy tanqidchilik, ilmiy-nazariy fikrlarning shakllanishida Cho'lponning o'rni masalasi, uchinchidan, Cho'lponning adabiy merosga bo'lgan faoliyatiga qaratilgan nazariy ma'lumotlar qayd etilgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Ish davomida bu masalalarni o'rganish e'tiborga olingan.

Talaba Fayziyev Bobur adabiyotshunoslik sohasiga doir ko'plab kitoblarni o'qiganligi, cho'lponshunoslikda olib borilgan ishlarga o'z munosabatini bildirganligi tadqiqotdan bilinadi.

Bitiruv malakaviy ishida Cho'lpon she'rlariga e'tibor qaratilib, ularning ayrimlari tahlil etilgan. Ishda ayrim imloviy va uslubiy xatoliklar ko'zga tashlanadi.

Talaba o'zining mazkur bitiruv malakaviy ishida o'z oldiga qo'ygan masalalarni ochib berishga harakat qilgan. Mazkur bitiruv malakaviy ishini Davlat attestatsiyasi komissiyasi himoyasiga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

katta o'qituvchi Z.Axmedova

**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek
filologiyasi fakulteti bitiruvchi kurs talabasi
Fayziyev Bobur Sobirovichning "Cho'lpon
she'riyatida davr ziddiyatining aks etishi"
mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadid adabiyoti vakillarining mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida olib borgan xayrli ishlari ma'naviyat sohiblarining qalbidan chuqur o'rin egallagan.

Talaba Fayziyev Bobirning "Cho'lpon she'riyatida davr ziddiyatining aks etishi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunoslik ilmining yuzaga kelishi bevosita jadid adabiyoti bilan bog'liqligi, adabiy tanqidchilik, ilmiy-nazariy fikrlarning shakllanishida Cho'lponning o'rni masalasi, uchinchidan, Cho'lponning adabiy merosga bo'lgan faoliyatiga qaratilgan nazariy ma'lumotlar qayd etilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ish an'anaviy kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishida Cho'lpon she'rlariga e'tibor qaratilib, ularning ayrimlari tahlil etilgan.

Birinchi bobda Cho'lpon hayoti va ijodi, uning o'rganilish tarixi atroflicha yoritib berilgan.

Ikkinchi bob esa Cho'lpon she'riyati milliy uyg'onish davri mahsuli deb nomlanib, unda Cho'lpon she'rlaridan ayrimlari tahlil qilingan.

Talaba o'zining mazkur bitiruv malakaviy ishida o'z oldiga qo'ygan masalalarni ochib berishga harakat qilgan.

Ushbu ish bitiruv malakaviy ishning barcha talablariga javob beradi.

Taqrizchi:

NavDPI huzuridagi 3- akademik litseyi

ona tili va adabiyoti o'qituvchisi:

Kenjayeva L.